

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK” fakulteti

“YER USTI TRANSPORT TIZIMLARI” kafedrasi

DIPLOM LOYIHASI BO`YICHA

T U S H I N T I R I S H X A T I

Diplom loyihasining mavzusi: Yo`lovchi tashish uchun avtouyushma tenderlarini o`tkazish va tender kontraktlari talabalarini o`rganish.

Bitiruvchi: 5310600 - “Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi” yo`nalishi 4-kurs 141-14-guruh talabasi:

	_____	I.Aripjonov
Fakultet dekani:	_____	M.Qo`chqarov
Kafedra mudiri:	_____	N.Ikromov
Diplom loyihasi rahbari:	_____	Q.Mirzayev
Maslahatchilar:	_____	A.Raximov
	_____	M.Yusupova

Andijon – 2018

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
“MASHINASOZLIK” fakulteti
“YER USTI TRANSPORT TIZIMLARI” kafedrası
DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH BO`YICHA

T O P S H I R I Q

Aripjonov Ilhom

1. Diplom loyihasining mavzusi: Yo`lovchi tashish uchun avtoulushma tenderlarini o`tkazish va tender kontraktlari talabalarini o`rganish.

Institut bo`yicha 2017 yil “28” dekabrda 236- sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Diplom loyihasini bajarish uchun ma`lumotlar:

- Soha bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, O`z.Res qonunlari, VMning qarorlari;
- Mavzu bo`yicha asosiy darslik va adabiyotlar;
- Mavzu bo`yicha statistik ma`lumotlar;
- Hayot faoliyati xavfsizligi qismi bo`yicha me`yorlari;
- Texnik iqtisodiy ko`rsatkichlar.

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma`lumotlar:

1) Kirish. Bu qismda talaba soha va mavzu bo`yicha Respublikamizda erishilayotgan yutuqlar, davlat dasturlari va ularning bajarilayotganligi, avtomobilsozlik sanoatining rivojlanish bosqichlari to`g`risida ma`lumotlar beradi. Bundan tashqari mavzuning hozirgi kundagi dolzarbligi va uning kelesidagi samarasi yoritiladi.

2) Asosiy qism. Mavzu bo`yicha bajarilgan ishlarning tahlili va adabiyotlar sharhi beriladi. Mavzuning asosiy mazmuni yoritiladi va zarur ma`lumotlar keltiriladi.

3) Texnologik qism. Mavzu bo`yicha texnologik yechimlar keltiriladi.

4) Hayot faoliyati xavfsizligi qismi. Mavzu bo`yicha xavfsizlikni ta`minlovchi asosiy shartlar, mashina va mexanizmlarning xavfli zonalari, muhofazalovchi va saqlovchi to`siq vositalari va ekologik talablar kabi ma`lumotlar keltiriladi.

5) Iqtisodiy qism. Mavzu bo`yicha qilinayotgan loyihaning yoki konstruksiya (texnologiya)ning iqtisodiy samaradorligi keltiriladi.

6) Xulosa va takliflar. Mavzu yuzasidan yuqorida qilingan ishlar bo`yicha umumiy xulosa va takliflar keltiriladi.

**7) Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.** Mavzuni bajarish davomida foydalanilgan adabiyotlar va internetdagi veb saytlarning ro`yhati keltiriladi.

8) Ilova. Mavzu bo`yicha maxsus jadvallar, diplom loyihasi oldi amaliyoti davrida to`plagan rasmlar va internetdan olingan ma`lumotlar ilova qilinadi.

4. Diplom loyihasining chizmalari ro`yhati (A3 formatda 6 list vatman):

a) Asosiy qism chizmalari (jadval, grafik va boshqalar):

1-chizma. _____

2-chizma. _____

b) Texnologik qism chizmalari:

3-chizma. _____

4-chizma. _____

5-chizma. _____

c) Tashkiliy qism chizmalari (reja, struktura va boshqalar):

-

d) Iqtisodiy qism bo`yicha jadvallar:

6-chizma. _____

5. Diplom loyihasi qismlari bo`yicha maslahatchilar:

№	Diplom loyihasining qismlari	Boshla-nish muddati	Tugalla-nish muddati	Imzo	Maslahatchi-ning familiyasi
1	Kirish	11.01.2018	31.01.2018		Q.Mirzayev
2	Asosiy qismi	01.02.2018	28.02.2018		Q.Mirzayev
3	Texnologik qismi	01.03.2018	31.03.2018		Q.Mirzayev
4	Hayot faoliyati xavfsizligi qismi	02.04.2018	16.04.2018		Raximov A
5	Iqtisodiy qismi	17.04.2018	30.04.2018		Yusupova M
6	Xulosa va takliflar	01.05.2018	15.05.2018		Q.Mirzayev
7	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati	16.05.2018	01.06.2018		Q.Mirzayev

6. Topshiriq berilgan sana: 11.01.2018 yil

7. Tugallangan diplom loyihasini topshirish sanasi: 01.06.2018 yil

Diplom loyihasi rahbari: Q.Mirzayev

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi: I.Aripjonov

Kafedra mudiri: t.f.n. N.A. Ikromov

MUNDARIJA

1. KIRISH	5
2. ASOSIY QISM	10
2.1. Adabiyotlar sharxi.	10
2.2. Avtomobil transportida raqobat, uning turlari va transport xizmati bozori.	15
3. TEXNOLOGIK QISM	27
3.1. Yo`nalishlarda yo`lovchilarni tashish uchun ochiq tenderlarni tashkil etishning huquqiy asoslari va ularda qatnashish.	27
3.2. Tashuvchi bilan buyurtmachi o`rtasida transport xizmatini ko`rsatish yuzasidan kontraktlar tuzish.	42
4. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI QISMI	53
4.1. Magistral yo`llarda haydovchilar xavfsizligini ta`minlash usullarini tashkil qilish.	53
5. IQTISODIY QISM	57
5.1. Avtougushma qoshida avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatish texnologiyasini iqtisodiy tahlili.	57
6. XULOSA VA TAKLIFLAR	64
7. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI	67
8. ILOVA	69

1. KIRISH

Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o`z oldiga ezgu va ulug` maqsadlar qo`yib, tinch – osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o`z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo`lida ulkan natijalarni qo`lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Biz o`z taqdirimizni o`z qo`limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo`lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Ana shu haqiqatni xalqimiz har tomonlama to`g`ri tushunib, tanlagan taraqqiyot yo`limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo`llab – quvvatlayotgani oldimizga qo`ygan maqsadlarga erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o`zi tasdiqlamoqda.

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo`lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko`ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo`lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma`naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat`iyat va mas`uliyatimizni yo`qotsak, bu o`ta muhim ishni o`z holiga, o`zi bo`larchilikka tashlab qo`yadigan bo`lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo`g`rilgan va ulardan oziqlangan ma`naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir – oqibatda o`zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo`lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin. O`z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo`q.

O`sib kelayotgan avlod bugungi ezgulik yo`lidagi bunyodkorlik ishlarining davomchisidir. Milliy ma`naviyatimiz qirralarini kelajak avlodimiz shuurida mukammal shakllantirish va yuksaltirish uchun barchamiz ma`sulmiz [1].

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarimiz tashkil etadi.

Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning xalq etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur.

Shu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.

Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Biz yoshlarga doyr davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Bosib o'tilgan yo'l va ortirilgan tajribani xolisano baholashdan, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda oldimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini rivojlantirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasi turadi.

Mazkur vazifani amalga oshirish yo'lida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muxokamalar olib borishdi, shuningdek

amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari, ma`ruzalari, tavsiyalari va sharhlar o`rganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi. Ushbular asos qilinib 2017-yilning 7-fevral kuni “O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi farmoni qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta`minlash uchun shart-sharoitlar yaratilishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo`nalishi belgilangandi:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta`minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglikni ta`minlash, chuqur yo`nalgan, o`zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Bugun mamlakatimizning barqaror rivojlanish yo`lida izchil ilgari lab borishini tahlil qilar ekanmiz o`tgan yillarda prinsipial muhim islohatlarni amalga oshirish bo`yicha qat`iy qadamlar qo`yildi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Bu islohatlarning asosiy maqsadi-aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta`minlashdir [3].

Ayni yillarda avtomobil transporti sohasida aholiga xizmat ko`rsatish sifatini yaxshilash borasida ko`plab chora-tadbirlar ko`rildi, avtotransport xizmatlarini rivojlantirishning maqsadli parametrlari izchil bajarilmoqda ushbu vazifalarni yanada yaxshilash uchun, 2017-yilni 10-yanvar kuni O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M.Mirziyoyevning “Aholiga transport xizmati ko`rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo`lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” qarori qabul qilindi.

Qabul qilingan qaror aynan Respublikaning shahar va qishloqlarida, birinchi navbatda, qishloq joylarida avtotransport xizmatlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga yo'lovchilar tashish xavfsizligini oshirishga qaratilgan.

2017-2021 yillarda 303 ta yangi yo'lovchi tashish yo'nalishi, ulardan 240 tasini (79,2%) shahar atrofida va qishloq joylardan o'tadigan shaharlararo qatnovlarni ochish bilan birgalikda, asosan, avtobuslar yetishmasligi tufayli qatnov to'xtatilgan yo'nalishlar tiklanadi. Kelgusi 5 yilda 8,6 mingta yo'lovchi tashish automobili, shu jumladan, 5,7 mingta umumiy foydalanishga qulay mikroavtobus sotib olinadi.

Yo'lovchilarga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash maqsadida avtobus va mikroavtobuslarning ishini masofadan onlayn rejimida (GPS) nazorat qiladi.

Dasturning amalga oshirilishi yuzasidan ishchi guruh muntazam monitoringi olib boriladi. Yangi avtobuslar va mikroavtobuslarni sotib olish yuzasidan shartnomalarni kelishish va amalga oshirishda ularga texnik xizmat ko'rsatishning (TXK) zamonaviy, modernizatsiyalash punktlarida aynan bir xil texnik xizmat ko'rsatishni ta'minlashda avtomobilda tashuvchilarga ko'maklashish ishchi guruhning vazifasi etib belgilangan [4].

2017-yil yakunlaridan olingan ma'lumotlarga ko'ra, respublikaning barcha avtomobil transporti vositalari bilan jami 1 mlrd. 41 mln. tonna yuk va 5 mlrd. 565 mln. yo'lovchi tashilib, ushbu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan tegishli ravishda 103.7 va 102.3 foizni tashkil etdi.

Yuk aylanmasi 13 mlrd. 629 mln. tonna km.ni (2016-yilga nisbatan 102.5 foiz), yo'lovchilar aylanmasi esa 117 mlrd. 157 mln. yo'lovchi km.ni (2016-yilga nisbatan 102.6 foiz) tashkil qildi.

Oxirgi 17 yil davomida respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan yo'lovchi tashish yo'nalishlari soni qariyb 2343 taga oshib, xozirgi kunda 4375 taga yetdi. Ularning 996 tasi shahar, 3122 tasi shahar atrofi va 257 tasi shaharlararo yo'nalishlarni tashkil etadi.

2017-yil yakuni bilan jami 109 ta ochiq tender o'tkazilgan bo'lib, ularda 1072 ta yo'lovchi tashish bo'yicha yo'nalishlar joylashtirilgan. Shundan 179 ta 10

shahar ichidagi yo`nalishlarini joylashtirish bo'yicha 25 ta tender, 747 ta shahar atrofi va 82 ta shaharlararo-viloyatlar ichidagi yo`nalishlarni joylashtirish bo'yicha 82 ta tender, 64 ta shaharlararo-viloyatlararo yo`nalishlarni joylashtirish bo'yicha 7 ta tender o'tkazildi.

Respublikadagi yo`lovchi tashish faoliyati bilan shug`ullanuvchi tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan yonilg'i mahsulotlarini tejashga qaratilgan tashkiliy-texnikaviy tadbirlarni bajarish maqsadida, hisobot davrida 100 ta tashuvchi tomonidan jami 673 ta avtobus siqilgan (316 ta) va suyultirilgan (357 ta) gazda ishlashga qayta jihozlandi.

2. ASOSIY QISM

2.1. Adabiyotlar sharxi.

Diplom loyihamni bajarish davomida quyida keltirilgan adabiyotlardan

Mirziyoyev Sh.M., “Aholiga transport xizmati ko`rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo`lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori. Ushbu qaror Respublikaning shahar va qishloqlarida, birinchi navbatda, qishloq joylarida avtotransport xizmatlari bilan ta`minlashni yanada yaxshilashga yo`lovchilar tashish xavfsizligini oshirishga qaratilgan [4].

“O`zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi va respublika avtomobil transporti”ning 2017-yil ish yakunlari to`g`risidagi ma`lumotnoma. Ushbu ma`lumotnomada agentlikning 2017-yil olib brogan faoliyatini yoritib beruchi muhim statistik qo`llanma hisoblanadi [5].

Xo`jaev B.A., “Avtomobillarda yuk va passajirlarni tashish asoslari”. Ushbu darslikda avtomobillarda yuk va yo`lovchi tashishga oid ko`plab ma`lumotlar mujassamlangan. Aholini bir yerdan ikkinchi yerga tashishda transportning ahamiyati yildan-yilga oshib bormoqda. Bu ishni asosan passajir transporti amalga oshiradi. Passajir transportining asosiy vazifalaridan biri, kishilarni o`z vaqtida ish joyiga va ishdan uylariga eltib qo`yish, ish kuni davomida ishchi va xizmatchilarni korxonalar o`rtasida tashishdan iboratdir. Kitobda shu muammolarni hal qilishda bajariladigan tavsiyalar berilgan [6].

Karimov E. “Avtomobillarda yuk tashish va uni tashkil qilish”. Muallif bu kitobida avtomobillarda yo`lovchilarni tashish va uni tashkil qilish jarayonlarini keng qamrovda olib borishni batafsil yoritib bergan. Transportning yaxshi ishlashini belgilovchi muhim omillardan biri uning yuk va passajirlarni tashish muntazamligidir. Zarur mahsulot, xom ashyo, ehtiyot qismlar, yonilg`i o`z vaqtida va muntazam tashilgandagina ularning omborlardagi zahiralar eng kam miqdorda bo`lishi va ishlab chiqarishni uzluksiz tashkil etish imkoni yaratiladi. Tabiat boyliklaridan foydalanish va ularni tashishda ham transport, ayniqsa, avtomobil

transporti alohida o`rin tutadi. Agar zamonaviy transport vositalari va rivojlangan yo`llar bo`lmasa, tabiat boyliklaridan samarali foydalanish qiyin bo`ladi [7].

Xo`jaev B.A. “Avtomobil transporti iqtisodiyoti”. Ushbu adabiyotda shahar ichi, shahar atrofi, shaharlararo sayohat maqsadida foydalaniladigan, qisqa masofaga (qishloq tumanlari o`rtasida) qatnovchi maktab o`quvchilari uchun, ekskursion va vazifasi umumiy bo`lgan avtobuslarda davlat standartiga binoan shahar ichi va shahar atrofi avtobuslari “shahar avtobuslari” guruhiga, shaharlararo, sayohat, qisqa masofada (qishloq tumanlari o`rtasida) ishlovchi avtobuslar uzoq masofalarga qatnovchi avtobuslar xususiyatlari va xokazo ma`lumotlar keltirilgan [8].

“Avtomobillarda yo`lovchilar va yuklarni tashishni tashkil qilish va normativ - huquqiy hujjatlardan foydalanish” haqidagi metodik qo`llanmada kompleks vazifalar keltirilgan. Qo`llanmaning “Qonunchilik asoslari” bobida sohaga asos bo`luvchi qonuniy hujjatlar, O`zbekiston Respublikasining “Avtomobil transport to`g`risida”gi, “Yo`l harakati xavfsizligi to`g`risida”gi, “Shahar yo`lovchilar transporti to`grisida”gi qonunlar, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlari keltirilgan.

Avtomobillarda tashish turlari, yo`lovchilar oqimini aniqlash, avtomobillarni ekspluatatsion ko`rsatkichlari, foydalanish samaradorligi, marshrutlar tarmog`i va yo`ldagi inshootlar, avtomobil transporti vositalari, boshqaruv tizimlari bo`yicha uslubiy tavsiyalardan tashkil topgan.

“Avtomobil korxonalarning ish faoliyatini rejalashtirish”, “Avtokorxananing ishlab chiqarish-xo`jalik faoliyatini tahlil qilish”, “Biznesni rejalashtirish”, “Marketing”, “Lizing”, “Soliq” hamda avtotransportda “Mehnatni muhofaza qilish va mehnat munosabatlari” va ekologiya masalalari kiritilgan.

Metodik qo`llanma O`zbekiston avtomobil transporti sohasida. Oliy o`quv yurtlar bakalavrlari, magistrantlari, kollej pedagoglari, haydovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash o`quv muassalarida, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar avtomobil transportida yo`lovchilar va yuk tashish bilan shug`ullanuvchi rahbarlar,

mutaxassislar, malaka oshirish kurslari tinglovchilariga avtotransport tarmog'i korxonalari uchun yo'llanma sifatida xizmat qiladi [9].

Muhitdinov A., Sattivaldiev B. va Xakimov Sh. "Transport vositalarining tuzilishi. Design of vehicles" nomi o'quv qo'llanmada transport vositalarining tasnifi, avtomobillarning umumiy tuzilishi, ixtisoslashtirilgan transport vositalari, avtomobil dvigatellarining tasnifi, umumiy tushunchalar va asosiy parametrlar, turli dvigatellarning ishlash prinsiplari, dvigatelning mexanizmlari va tizimlari, avtomobilning transmissiyasi turlari, ularning asosiy qismlari o'zbek va ingliz tillarida bayon etilgan [10].

Muhitdinov A., Sattivaldiev B., Fayzullaev E. va Xakimov Sh.larning "Avtomobillar konstruksiyasi asoslari" o'quv qo'llanma. Jamiyatimizning rivojlanish jadalligini ta'minlashda yuqori malakali kadrlar alohida o'rin tutadi. Shuning uchun avtosanoat korxonalari uchun zamonaviy konstruksiya va texnologiya yaratuvchi, transport xizmatini tashkil etuvchi va undan samarali foydalanuvchi mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarining mas'uliyati yuqori. Zamonaviy bozorda xilma-xil vazifalari, texnik tavsiflari, narhlari bilan farq qiladigan avtomobillar modellarini uchratish mumkin. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri - bozordagi kuchli raqobat. Avtomobil konstruksiyasini takomillashtirish iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy talablar bilan asoslanayapti. Avtomobilni tanlash va uni uzoq samarali ekspluatasiya qilish mutaxassislardan yuqori malakali bo'lishni talab qiladi.

Qo'llanmada O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan va transport xizmatlarida keng tarqalgan avtomobillar va ixtisoslashtirilgan transport vositalarining, agregat va tizimlarining vazifasi, tasnifi, tuzilishi, ishlash prinsipi va turlarining tahlili keltirilgan. Ma'lumotlar, mohiyatlar va materiallar yozilishi bakalavr uchun oson qabul bo'ladigan matnda bo'lishiga alohida e'tibor qaratilgan [11].

Qoriyeva Yo. K. "Globallashuv jarayonida xalqaro transport logistik tizimi faoliyatining samaradorligi". Jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida globallashuvning amalga oshirilishi sharoitida transport tizimi ishini eng maqbul

tarzda tashkil etish, baholash va rivojlanish istiqbollarini belgilash logistik tizimli yondashuvsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Xalqaro mehnat taqsimoti, kooperatsiyasi va integratsiyasi jahonda bir qancha qancha transmilliy korporatsiyalarni vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Ular o'z faoliyatlarini amalga oshirishda global logistik zanjirlar va kanallardan foydalanadilar. Ushbu sharoitlarda, davlatlar orasidagi logistik kanallarni yaratilishiga xalqaro transportekspeditorlik firmalari, infratuzilmalar va global telekommunikatsiya tarmoqlari yordam beradi [12].

Kuznetsov E.C., Boldin A.P. va boshqalar. "Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi" qayta ishlangan va to'ldirilgan ruscha 4-nashridan tarjima qilingan darslik. Darslikda avtomobillar texnik ekspluatatsiyasining holati fan tarmog'i va amaliy faoliyat sifatida, ekspluatatsiya sohasida ishlayotgan muhandisga talablar yoritilgan; avtomobillar texnik holatining o'zgarish sabablari, texnik xizmati ko'rsatish (TXK) va ta'mirlash rejaliogohlantirish tizimi, ularning me'yorlari, xizmat ko'rsatish vositalarining o'tkazish qobiliyatini shakllantirish qonuniyatlari, avtomobillarga TXK va ta'mirlash texnologiya asoslari, ishlab chiqarishni boshqarish uslublari va moddiy-texnik ta'minotni tashkil etish, maxsus sharoitlarda avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi, avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi taraqqiyotining istiqbollari va ekologik xavfsizlikni ta'minlash uslublari bayon etilgan [13].

Magdiev Sh.P., Rasulov H.A. "Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash" o'quv qo'llanmada avtotransport harakatlanuvchi tarkibiga texnik xizmat ko'rsatish asoslari, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashda qo'llaniladigan jihozlar, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnologiyasi, avtotransport korxonalarida moddiy-texnika ta'minoti va resurslarni tejash, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash ishlarini tashkil etish va avtomobillar servisi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan [14].

Azizov Q.X. "Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari" darsligida yo'l harakatini tashkil etishning asosiy tamoyillari va ularni muayyan sharoitda amalga oshirish usullari, transport va piyodalar oqimlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar,

harakat xavfsizligini ta'minlashda transport vositalarining texnik holatining ahamiyati, haydovchi va uning harakat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni, harakatni boshqarishning texnik vositalarini va yo'l harakatini tashkil etishning amaliy tadbirlari har tomonlama fan va texnika yutuqlari hamda chet el tajribalarini hisobga olgan xolda yoritib berilgan [15].

Rahimov X., A'zimov A., Tursunov T. "Mehnatni muhofaza qilish" o'quv qo'llanma 4 qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi, mehnatni muhofaza qilishning umumiy masalalari: mehnatni muhofaza qilish qonuniyatlari asoslari; ishlab chiqarishda sog'lom va xavfsiz mehnat qilish sharoitini yaratish; ishlab chiqarish korxonalarida mehnat sharoitini tekshirish va baholash. Ikkinchi qismi, sanoat sanitariyasi va gigienasi: mehnatni muhofaza qilishda ergonomikaning ahamiyati; ishlab chiqarish muhitida meteorologiya sharoitlari; radiatsiya xavfsizligi asoslari; ishlab chiqarish xonalarini yoritish; ishlab chiqarishdagi shovqin, titrash va tebranish; ishlab chiqarish nurlanishidan himoya; laboratoriya xonalariga bo'lgan xavfsizlik talablari; sanoat chiqindilarini tozalash. Uchunchi qismi, texnika xavfsizligi asoslari: kimyo sanoati korxonalari bino, inshootlarining loyihasini tuzish va qurilishga bo'lgan mehnat muhofazasi; texnologik jarayonlar xavfsizligi; texnologik uskuna, moslama, qurilma-apparatlarning xavfsizligi, korxonalarda yuk ko'tarish, tashish transportlari va moslamalaridan foydalanish xavfsizligi; elektr xavfsizligi. To'rtinchi qismi: yong'in xavfsizligi asoslari; ishlab chiqarishning xavfsizligini baholash uchun moddalarning yong'inga moyillik xususiyatlarini aniqlash; yong'inni o'chirish vositalari kabi boblaridan diplom loyiha ishining hayot faoliyati xavfsizligi qismini yoritishda foydalanildi [16].

Qosimov G.M. "Transport korxonalarida menejment" darsligi. Darslik ikki bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limda boshqarish jarayonini tashkil etishning umumiy muammosi tahlil qilingan. Ikkinchi bo'limda esa avtomobil transporti va aholi avtomobillariga texnik xizmat ko'rsatish korxonalari iqtisodiyotini boshqarishga qaratilgan [17].

Shunindek bir qator internet saytlari orqali kerakli ilmiy texnik ma'lumotlar oldim [18-22].

2.2. Avtomobil transportida raqobat, uning turlari va transport xizmati bozori.

Har qanday ijtimoiy tuzumda raqobat muayyan ijtimoiy vazifalarni bajaradi.

Raqobat deganda bir maqsad sari ijtimoiy subyektlarning faol musobaqadagi o`zaro munosabatlari tushuniladi.

Raqobat tufayli uning ishtirokchilari raqobatda yutib chiqishi uchun boshqa raqobatchilarning faoliyatini kuzatib boradi, tahlil qiladi va qiyoslash natijalariga qarab maqsadga erishishning eng maqbul yo`llarini tanlaydi.

Demak, raqobat mahsulot (xizmat) birligiga mehnat sarfinj kamaytirishga, eng mukammal texnologiyalarni ishlab chiqishiga va qo`llashga, mahsulot sifatini yaxshilash va narhini kamaytirishga olib keladi.

Asrimizning eng buyuk tadbirkorlaridan biri — mashhur “Soni” kompaniyasining boshlig`i vaponiyalik Akio Morita shunday deydi:

“Yapon biznesining shuhrati ham, keskir qilichi ham, sanoatimizni harakatlantiravchi kuch — bu o`sha marhamatli kuch — marhamatli raqobat hisoblanadi”.

Bugungi kunda raqobatning to`rt modeli mavjud:

1. Mukammal (sof) raqobat. Sof raqobat bozorda o`z tovar yoki xizmatlarini subyektlar va ularga ehtiyoji bo`lgan talabgorlarning ko`pligi bilan tavsiflanadi. Masalan, yengil avtomobillarda xizmat ko`rsatuvchilar (taksistlar) va mijozlarning ko`pchiligi to`plangan joy. Bu yerda avtotransport egalarining hech biri transport xizmati narhiga alohida ta`sir eta olmaydi, aks holda uning xizmatidan hech kiras foydalanmay qo`yishi mumkin. Ijtimoiy nuqtayi nazardan xalqimiz uchun shunday raqobatli bozorning mavjudligi judaham maqsadga muvofiqdir.

2. Monopolistik raqobat. Bunday raqobatda raqobatchilar anchagina bo`lishiga qaramay, bozor narhlarini nazorat qilish imkoniyati boimasada, unga qisman ta`sir etishlari mumkin. Monopolistik raqobatga xos bo`lgan muhim belgilardan biri tovarlarni tabaqalashtirishga intilishdir. Masalan, avtobus o`rindiqlarining qattiq yoki yumshoqligi, avtobusning yangi yoki eskiligi, xuddi

shunday boshqa transport vositalarining ham ayrim belgilariga qarab transport xizmati narhini belgilash.

3. Oligopoliya raqobati sharoitida tarmoqda bir necha taklif etuvchi subyektlar bo'lib, ularning har biri bozorning katta qismini egallaydi. Bunday sharoitda subyektlar o'zaro bog'lanib qoladi. Ularning har biri o'z harakati bilan raqiblarga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ularning ta'sirida bo'ladi.

Masalan, bir yo'nalishda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatayotgan transport korxonasi har xil mulkchilik subyektlariga tegishli bo'lsalar, ular transport xizmatini ko'rsatish narhini o'zgartirish orqali boshqalariga ta'sir o'tkazadilar. Yana shuni ham eslatib o'tish joizki, oligopoliya raqobatida subyektlar o'zaro til biriktirib olishlari ham mumkin.

Xo'jalik subyektlarining raqobatni jiddiy cheklashga olib keladigan noqonuniy kelishuvlariga yoki o'zaro kelishilgah faoliyatiga qarshi kurashish bozor iqtisodiyoti davlatlarida antimonopol qonun hujjatlari yordamida hal qilinishi kerak bo'lgan eng asosiy vazifalardan biridir.

4. Mukammal (sof) monopoliya. Bu raqobatda bir-biriga yaqin bo'lmagan mahsulot ishlab chiqaruvchi subyekt faoliyat ko'rsatadi. Bu yerda bozor tanho yoki ularga o'xshaganlarning soni deyarli tanoqli bo'ladi. Shuning uchun monopoliya bozorda mahsulotning hajmi (taklif hajmi) va narhiga hech bir qiyinchiliklarsiz ta'sir o'tkazadi.

Bugungi kunda barcha davlatlarda jamiyatning eng muhim ehtiyojlariga xizmat ko'rsatadigan tarmoqlar:

- elektr ta'minoti;
- havo va temiryo'l transporti va shu kabilar tabiiy monopoliyalar qatoriga kiradi.

Bulardan ko'rinib turibdiki, monopoliyalar (mahsulot ishlab chiqaruvchi subyekt xoh davlat yoki xoh nodavlat mulkchiligida bo'lsin) davlat tomonidan boshqarilishi kerak.

Monopoliyalarning davlat tomonidan boshqarilishi, bir tomondan, monopolistga mahsulot birligini ishlab chiqarishga ketadigan harajatlarni

ta'minlashga, ikkinchi tomondan, xarajatlarning iqtisod qilinishidan ishlab chiqaruvchigina emas, balki, birinchi navbatda, iste'molchilar foyda ko'rishiga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi va mukammallashib borgan sari raqobatning shakl va usullari ham o'zgarib boradi.

Jahondagi barcha mamlakatlarda qonuniy hisoblangan va amalda keng qo'llanib kelinayotgan raqobatning quyidagi shakllari mavjud.

Narh bilan raqobatlashuv. Bu shaklning bir necha usullari mavjud bo'lib, ulardan eng asosiysi "narhlar jangi" deb ataladi. Bu usulda yirik ishlab chiqaruvchilar raqiblarini tarmoqdan siqib chiqarish maqsadida narhlarni vaqt-vaqti bilan yoki uzoq muddatga pasaytirib turadi. "Narhlar jangi"da baquwat firma tovarning sotilishi hajmini ko'paytirish hisobiga ko'proq daromad ko'rishni ko'zlaydi. Masalan, ko'pgina MCHJlarning yo'nalishli taksilaridagi yo'l kira haqi shu yo'nalishda qatnayotgan avtobuslarning yo'l kira haqiga teng bo'lgani uchun yo'lovchilar ulardan ko'proq foydalanib keldilar. Yo'lovchilar dastlab tarmoqdagi "narhlar jangi"dan foyda ko'radilar, ammo keyinchalik bunday monopoliyalashtirishning "jabrini tortishlari" ham mumkin. Masalan, yo'lovchilar yo'nalishli taksilardan ko'proq foydalanayotgani sababli ko'pgina yo'nalishlarda ishlash uchun zarur bo'lgan avtobus soni kamayadi. Buning natijasida avtobuslarning harakat intervali ortib ketadi. Bu esa, birinchi galda, davlat tomonidan yo'lovchilarning ba'zi toifalariga berilgan imtiyozlardan foydalanish sa marasining keskin kamayishiga, boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy himoyani yo'qqa chiqarib qo'yishi mumkin.

Demping, amal qilish va maqsadlariga ko'ra "narhlar jangi"ga yaqin bo'lib, narh bilan raqobatlashuv usuliga kiradi. Uning mohiyati shundaki, yirik tovar ishlab chiqaruvchilar boshqa mamlakatlar hududida korxona qurmaydilar, ammo uning bozorlariga o'z ichki bozoridagi narhlardan, ayrim hollarda hatto mahsulotning tannarhidan ham past bahoda mahsulotlarini kiritadilar. Dempingning ma'nosi shuki, tovar ishlab chiqaruvchi mamlakatning ichki bozorida narhlarni sotilayogan ortiqcha mollarni yo'qotish va yangi bozorlarga so'zsiz qoniqtirishi bilan birga,

mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarning rivojlanishiga keskin to'sqinlik holatlari vujudga kelganida davlat bu jarayonni savdo cheklashlarini joriy qilish, muayyan turdagi tovarlarni kiritish uchun bojlarni ko'tarish bilan nazorat qilishi mumkin (chetdan kiritilayotgan avtomobillar uchun bojxona narhi).

Narh bilan raqobatlashuv usullariga yana quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin:

- muayyan toifadagi iste'molchilar uchun imtiyozli narhlar;
- vaqti va joyiga qarab narhlarni tushirish va yoki ko'tarisli (transport xizmati takliflari talabga qaraganda sezilarli darajada kam bo'lgan vaqt va joylarda);
- ko'rsatilgan xizmat hajmiga qarab narhni pasaytirish;
- xaridorlar uchun kreditlar tashkil etish va boshqalar "narhsiz raqobat".

Narh bilan raqobatlashuvga kirmaydigan raqobat usullari "narhsiz raqobat" deb ataladi:

- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga ko'proq foyda olishni ta'minlash;
- bozorda yuqori sifatli tovarlar (xizmat) bilan ishtirok etib, boshqa raqiblardan o'zib ketish;
- xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali ko'proq foyda olishni ta'minlash;
- sotilgan tovar uchun ma'lum muddat servis xizmatini ko'rsatish orqali yutib chiqish va boshqalar.

Har qanday tuzumda jamiyatning tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini "talab" deb ataladi. Ana shu ehtiyojlarni unga bo'lgan takliflar vositasida qondirish mumkin. Avval aytib o'tilganidek, talab bilan taklif uchrashgan har qanday joy "bozor" deb yuritiladi. Demak; bozor ikki xil ishtirokchilar uchrashadigan joy bo'lib, ulardan birinchisi tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar bo'lsa, ikkinchisi ularni sotib oluvchilar ekan.

Hozirgi paytda tovarlarni oldi-sotdi jarayoni mijozlarga buyurtmalarni telefon orqali yig'ib olib, zamonaviy yer yo'ldoshlari orqali amalga oshiriladigan aloqa vositalari yordamida ham sotish mumkinligini hisobga olib, o'zbek marketing

olimlaridan bin boʻlgan S.A. Salimov rivojlangan jamiyatda bozor bu, albatta, xaridor va sotuvchilar uchrashadigan jismoniy joy emasligini taʼkidlaydi.

Bugungi kunda bozorlarning bir-biridan har xil belgilari bilan farq qiluvchi turlari mavjud. Joylashishiga qarab bozor ichki va tashqi bozorlarga boʻlinadi. Biron-bir maʼmuriy hudud (respublika, viloyat, shahar va hokazo) ichidagi barcha bozorlar ichki bozorlar toifasiga kiradi. Tashqi bozorlar toifasiga Oʻzbekistonning tashqarisidagi bozorlar kiradi. Savdo-sotiq shakliga qarab bozorlar koʻtara va chakana savdo bozorlariga boʻlinadilar. Maʼlum tovarlarni sotishga ixtisoslashganiga qarab bozorlar quyidagi turlarga ajratilishi mumkin:

- buyum bozori;
- dehqon bozori;
- mehnat bozori;
- qimmatbaho qogʻozlar bozori;
- avtomobillar bozori;
- transport xizmati bozori va hokazo.

Bozor iqtisodiyotiga oʻtish boshlanguniga qadar transport ishining samaradorligi bajarilgan ish hajmi (tonna va tonna kilometrlar yoki yoʻlovchi va yoʻlovchi-kilometr) bilan baholanar edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida transport ishiga yangicha yondashish zarurligi, yaʼni bozor iqtisodiyotining asosiy tushunchalaridan biri boʻlgan “xizmat” tushunchasidan foydalanish zarur ekanligini koʻrsatdi.

ISO 8402-86 standartida “xizmat” deb materiallashtirilmagan mahsulot yaratish faoliyati va jarayonlariga aytiladi.

Yoʻlovchi avtomobili transportining xizmatlariga quyidagilar kiradi:

- vokzallar, shoh bekatlar va oraliq bekatlarda bilek sotish;
- oʻrinlarni avvaldan band qilish;
- yoʻlovchilarga harakat jadvali boʻyicha maʼlumotlar berish;
- qoʻl yuki, bagaj va yoʻlovchilarni tashish;
- bagajni rasmiylashtirish boʻyicha maʼlumotlar berish;
- yoʻlovchilarga tibbiy xizmat koʻsatishni tashkil etish;

- yo'lovchilarni avtobuslarga chiqarish va tushirish ishlarini bajarish;
- yuklarni saqlash xizmatlari;
- yo'lovchilar transportda ketayotganida dam olib ketishini ta'minlash;
- harakatlanuvchi tarkibni tashishga tayyorlash;
- transport-ekspeditsion xizmatlari va boshqalar.

Xo'jalik yurituvchi turli-tuman subyektlar (shirkatlar, AJ, MCHJ, XK va hokazo)ning bo'lishi transport xizmati bozorining shaklini ham o'zgarishiga olib keldi. Bugungi kunda mavjud transport xizmati bozorini quyidagicha tasvirlash mumkin (1-rasm).


Rasmdan ko'rinib turibdiki, transport xizmati bozorida O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan barcha transport turlari o'z xizmatlarini taklif etishlari mumkin. Shuning uchun raqobat, birinchi galda, mavjud transport turlari orasida vujudga keladi.

Agar ma'lum bir hududdagi, masalan, Toshkent shahridagi transport xizmatlari bozorini ko'radigan bo'lsak, bu yerda quyidagi transport turlari orasida raqobat vujudga keladi (metropoliten, tramvay, trolleybus, avtobus va yengil avtomobillar). Republikamizning ba'zi bir shaharlarida yo'lovchilarni trolleybuslarda ham tashish yo'lga qo'yilgan. Bunday shaharlarda, tabiiyki, avtomobil va trolleybus transportlari orasida raqobat mavjud bo'лади.


Rasmdan ko'rinib turganidek, tashish bilan shug'ullanuvchi transport korxonalari ham har xil bo'lganligi sababli tarmoq ichida ham raqobat vujudga keladi. Tarmoq ichidagi raqobatning eng afzal tomoni shundan iboratki, u tadbirkorlik subyektlaridan transport xizmati ko'rsatish turlarini ko'paytirish va sifatini yaxshilash, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishni talab etadi.

Avval aytib o'tilganidek, davlat tasarrufidagi korxonalarni xususiylashtirish jarayonida ularning asosida o'rta va kichik korxonalar vujudga kelishi hamda xususiy mulkchilikning vujudga kelishi oqibatida kichik va o'rta biznesning rivojlanishi uchun keng istiqbolli imkoniyatlarning ochilishi yo'lovchi tashishda

xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi subyektlarning qaror topishiga olib keldi. Bu esa avtomobillarda yo'lovchi tashuvchi korxonalar orasidagi raqobatning yanada kuchayishiga olib keldi. Avtomobillarda yo'lovchilar tashishda transport xizmatini ko'rsatish sifatining eng asosiy ko'rsatkichlari 2-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. Transport xizmati bozori sxemasi.



2-rasm. Aholiga transport xizmati ko'rsatish sifatining turlari va ko'rsatkichlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 9-martdagi "Avtomobil transportida yo'lovchilar tashish sohasigi tadbirkorlik faoliyatining alohida turlarini amalga oshirishni tartibga solish to'g'risida"gi 303-sonli Farmoniga ko'ra faqat yuridik shaxslarga tijorat asosida yo'lovchilar tashishga ruxsat berilishi MGHJ sonining yanada ortishiga olib keldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda endilikda MCHJ ni tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish eng muhim masalalardan biriga aylanganini ko'rish mumkin.

Xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari kabi avtotransportning bozor iqtisodiyotiga o'tishi ishni yangicha tashkil etish, transport xizmati bozorining tashkil topishi, har xil turdagi transport turlari va mulkchilikdagi egalari orasidagi raqobatni vujudga kelishi bilan tavsiflanadi.

Ayonki, hech bir korxona bozor talablarini bilmay turib, o'z ishini to'g'ri tashkil eta olmaydi va ko'rsatgan transport xizmatlari uchun yuqori foyda ololmaydi, demak, raqobatda yutib chiqa olmaydi. Buni avtotransport korxonalarining o'tgan davrdagi faoliyatidan ham ko'rish mumkin. Bir paytlar 2000-3000 dona avtotransport vasitasiga ega bo'lgan korxonalar juda kichik korxonalarga aylanib qoldi, ba'zilar esa butunlay yo'q bo'lib ketdi.

Bozorni tadqiq qilish obyektlariga transport xizmatini ko'rsatuvchi subyektlar (korxonalar), transport xizmati turlari, transport xizmatidan foydalanuvchilar, transport xizmatiga bo'lgan talab va transport xizmati bozoridagi raqobatni o'rganish va bashorat qilish kiradi.

Transport xizmatini ko'rsatuvchi subyektlar (korxonalar)ga transport xizmati turlari, transport xizmatidan foydalanuvchilar, transport xizmatiga bo'lgan talab va transport xizmati bozoridagi raqobatni o'rganish va bashorat qilish kiradi.


Transport xizmatini ko'rsatuvchi subyektlar (korxonalar)ni tadqiq qilish ularning faoliyatidagi ustunliklar va zaif tomonlarni aniqlash uchun o'tkaziladi.

Transport xizmatidan foydalanuvchilarni tadqiq qilish ularning transport xizmatiga bo'lgan tilak va istaklarini aniqlashga yordam beradi.

Transport xizmati turlarini tadqiq qilish bugungi kunda mavjud bo`lgan transport xizmati turlari va ularning sifatini aniqlash bilan birga, yangi transport xizmati turlarini aniqlashda qo`l keladi.

Raqobatchilarni tadqiq qilishdan bozorda ustuvorlikka erishish uchun kerak bo`lgan m`lumotlarni tahlil qilish asosida unda yutib chiqish taktikasi va strategiyasini ishlab chiqish uchun foydalaniladi.

Bozorni o`iganishda ularni bir qancha belgilariga qarab sigment- larga ajratish qabul qilingan, masalan, xaridor tomonlarni har xil belgilariga qarab turlarga ajratish: geografik-mintaqaviy (respublika, viloyat, shahar va hokazo), demografik (yoshi, oilasi), iqtisodiy-ijtimoiy mezonga qarab va boshqalar (3-rasm), qarab segment 3-rasm.



3-rasm. Bozor segmentlarinmg turlari.

S.A. Salimov bozorni segmentlarga ajratishning 6 bosqidhjgi taklif etadi. Uning tavsiyasi asosida transport xizmati bozorini segmentlarga quyidagicha ajratish mumkin:

- transport xizmati bozorini segmentlash mezonlarini shakllantirish;

- transport xizmati bozorini segmentlashni amalga oshirish;
- transport xizmati bozori segmentlarini tahlil qilish;
- transport xizmati bozorining maqsadli segmentlarini tanlash;
- taklif etilayotgan transport xizmati turlarining bozordagi o'rnini aniqlash;
- marketing rejasini ishlab chiqish.

**Andijon viloyatidagi shahar, shahar atrofi, viloyat ichi shaharlararo avtobuslarda yo'lovchilar tashish yo'nalishlari bo'yicha
MA'LUMOT**

Yo'nalish raqami	Yo'nalish nomi	Rajadagi ish tartibi (soat, minut)	Yo'nalishning o'rtacha masofasi km	Qatnovning o'rtacha vaqti (soat, minut)	Narxi (so'm)	Tashuvchi nomi	Bog'lanish uchun telefonlar
Faoliyat ko'rsatayotgan shahar ichi avtobus yo'nalishlari							
shi-1	VYXX boshqarmasi - 2-son shifoxonasi	55	15,6	45	500	Shahrixon yulovchi trans mchj	99899 907-56-04
shi-3	Andijon ASHB-Qo'shariq AS	50	15,2	40	500	Firdavs taksi lyuks MChJ	99893 758-92-12
shi-7	GAVS AS - Trikotaj	40	12,5	30	500	Jannat guli MChJ	99893 758-92-12
shi-8	Aeroport - Qo'shariq daxasi	45	14,0	35	500	Firdavs taksi lyuks MChJ	99893 758-92-12
shi-11	Buston daxasi-Kumakay	35	12,1	25	500	Firdavs taksi lyuks MChJ	99893 758-92-12
shi-15	Ko'makay-Markaziy dexqon bozori	45	14,0	35	500	Firdavs taksi lyuks MChJ	99893 758-92-12
shi-21	Pistamozor -Soy AS	30	7,5	20	500	Buyuk qurilish elit MChJ	99890 525-40-24
shi-25	Andijon kucha-Markaziy dexqon bozori	20	6,8	16	500	Andijon oq yo'l MChJ	99891 610-17-70
shi-55	Xolis AS-Jaxon bozori	55	9,5	46	500	Buyuk qurilish elit MChJ	99890 525-40-24
shi-77	Xolis AS-Qishloq xo'jalik oliygoxi	40	13,5	34	500	Trans Andijon MChJ	99890 525-34-44
	JAMI:		120,7		5000,0		
Faoliyat ko'rsatayotgan shahar atrofi avtobus yo'nalishlari							
shay-435	Andijon ASHB - Asaka BB	40	16,4	36	1100	"Flayt-elit" MChJ	99894 101-77-74
shay-440	Eski shahar BB-Madaniyat	60	36,8	55	2400	"Madaniyat Fayz Sanoat" MChJ	99894 380-46-07
shay-444	Marxamat - Andijon	60	33,8	50	2500	"Alpomish merosi" MChJ	99890 525-40-24
shay-443	Andijon BB - Shahrixon ASHB	55	32,8	50	2100	"Andijon rovon trans" MChJ	99890 528-05-98
shay-352	Xujaobod - Mustaqil. 16 yilligi	50	23,7	45	1500	"Platinium gold trans" MChJ	99890 253-10-91
shay-211	Qo'rgontepa-Oyim-Dardak	45	19,8	35	1300	Qo'rg'ontepa avtobaza trans MChJ	99890 383-05-05
shay-217	Qo'rgontepa-Dardak-Dexkonchek	30	11,4	25	700	"Qo'rg'ontepa avtobaza trans" MChJ	99890 383-05-05
					700	"Qo'rg'ontepa Dons" MChJ	99891 477-13-83
shay-219	"Qo'rgontepa-Yorkishlok"	36	18,5	31	1200	"Qo'rg'ontepa avtobaza trans" MChJ	99890 383-05-05

shay-221	Xonobod BB - Qo'rgontepa BB	60	31,9	56	2100	Qo'rg'ontepa avtobaza trans MChJ	99890 383- 05-05
shay-319	Marxamat BB - Asaka BB	40	20,3	35	1300	"Alpomish merosi" MChJ	99890 525- 40-24
shay-480	Marxamat BB - Polvontosh	35	17,1	30	1100	"Alpomish merosi" MChJ	99890 525- 40-24
shay-381	Marxamat SM - Bulokboshi SM	50	29	45	1900	"Alpomish merosi" MChJ	99890 525- 40-24
shay-284	Paxtaobod - Madaniyat (Guliston)	45	25,0	40	1600	"Madaniyat fayz sanoat" MChJ	99894 380- 46-07
shay-437	Andijon - Paxtaobod	70	36,8	60	2400	"Trans lyuks logistik" MChJ	99893 418- 06-41
shay-249	Shahrixon BB - Buz BB	30	12,0	26	800	"Shahrixon savdo invest" MChJ	99890 144- 70-07
shay-436	Anlijon shoxbekati- Qo'rgontepa BB	60	40,0	57	2600	"Buyuk qurilish elit" MChJ	99890 525- 40-24
shay-439	Bulokboshi BB - Andijon ASHB	55	24,9	50	1600	"Buloqboshi tiklanish trans" MChJ	99891 688- 89-68
	JAMI:		413,8		28900,0		
Faoliyat ko'rsatayotgan viloyat ichi shaxarlararo avtobus yo'nalishlari							
vx-570	Yorkishlok - Andijon	80	51,0	70	3300	"Umid- 2000" MChJ	99891 605- 50-36
	JAMI:		51,0		3300,0		

3. TEXNOLOGIK QISM

3. Xususiy avtotransport korxonalarida yo'lovchilar tashishni tashkil etish va uni davlat tomonidan nazorat qilish.

3.1. Yo'nalishlarda yo'lovchilarni tashish uchun ochiq tenderlarni tashkil etishning huquqiy asoslari va ularda qatnashish.

Avtomobil transportidagi raqobat va uning turlari oldingi bo'limlarda atroflicha bayon etildi. Yo'lovchilarni hamda yuklarni tashishda har xil mulkchilikka asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlar orasida sog'lom va erkin raqobatni ta'minlashga faqat ochiq tenderlarni o'tkazish orqali erishish mumkin. Shuning uchun ham tenderlar o'tkazish va uni takomillashtirish masalalari aholiga yuqori sifatli transport xizmatini ko'rsatishni ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Tender (*tender*) inglizcha so'z bo'lib, savdo, konkurs (tanlov) ma'nosini anglatadi. Ba'zi bir davlatlarning (Rossiya) qonun hujjatlarida tender atamasi o'rniga bugungi kunda ham konkurs so'zi ishlatilganligi sababli tadbirkorlar tenderlar o'tkazilish chog'ida ko'p hollarda ularni konkurs deb atab kelmoqdalar.

Tenderlar qaysi maqsadda o'tkazilishiga va mohiyatiga qarab bir necha turlarga bo'linadi: ochiq tenderlar, yopiq tenderlar, ko'p (odatda ikki) bosqichli tenderlar va maxsuslashtirilgan tenderlar.

Davlat mudofaasi yoki siri bilan bog'liq masalalar bo'yicha tenderlar o'tkazilish zarurati tug'ilganida yopiq tenderlar o'tkaziladi va unga faqat maxsus, oldindan qo'yilgan shartlarga javob bera oladigan subyektlar taklif etiladi, tender yopiq tarzda o'tadi. Bun day tenderlar yopiq tender deb ataladi.

Ba'zi tenderlarni o'tkazishda unda qatnashishni istagan barcha talabgorlar taklif etiladi. Ularning ichidan tender talablariga eng ko'proq javob bera oladiganlari qoldiriladi va qolgan talabgorlar orasida qaytadan yana tender o'tkaziladi. Bunday tenderlar ikki bosqichli tender deb ataladi.

Bugungi kunda eng ko'p tarqalgan tender turi bu ochiq tenderlardir.

Ochiq tenderlarda qatnashuvchilar soniga hech qanday cheklovlar qo'yilmaydi. Istalgan xo'jalik yurituvchi subyekt tenderda qatnashishi mumkin.

Tenderlarni o'tkazish ikkala tomonga, ya'ni tenderni o'tkazuvchi hamda unda qatnashuvchi uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Masalan, tenderni o'tkazuvchi tomon takliflar ichida eng maqbul yuqori sifatli va arzonini tanlash imkoniyatiga ega bo'lsa, qatnashuvchi shu sohada eng yetakchi o'rinda ekanligiga, keyinchalik ham u bilan hamkorlik qilish yaxshi natijalar berishi mumkinligiga kafolat bera olishiga ishonтиради.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, tenderlar har doim ham kutilgan natijalarni bermay, salbiy va noxush holatlaiga ham olib kelishi mumkin. Anton Gagenning ma'lumotlariga ko'ra, tenderlarning salbiy oqibatlariga tushib qolishining eng birinchi sababi - bu tender tashkilotchilarining odob-axloqidir (tashkilot- chilarining va da'vogarlarining etikasi). Rivojlangan davlatlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, ba'zi bir paytlarda tenderda yutib chiqish maqsadida da'vogarlar tender komissiyasi a'zolari bilan oldindan kelishib olishi ham mumkin ekan. Bunday hollarda tender g'olibi oldindan ma'lum bo'lganligi sababli ularda qatnashish hech qanday samara bermaydi. Shuning uchun ba'zan "halol tender" tushunchalari ham qo'llanib kelinyapti.

Halol tenderlarni o'tkazishda Yevropa reklamalar agentligi uyushmasi (YARA) ishlab chiqqan va bugungi kunda ko'pgina rivojlangan davlatlarda qo'llanib kelinayotgan tavsiyalar - tenderlarni o'tkazish axloq kodeksidan foydalanish maqsadga muvofiqroq bo'ladi.

YARA tenderlarni o'tkazish uchun 5 ta punktga alohida ahamiyat berish kerakligini ta'kidlaydi: Masalan, birinchi galda oldindan sinalgan mijozlar bilan ishlashga intilish, talabgorlarning sonini ko'paytirishga intilmaslik va boshqa shunga o'xshashlar.

Tender o'tkazishning qonuniy bazasi yaratilmaganligi ham tenderlarning obyektivligi ta'minlanmasligiga olib kelishi mumkin. Tenderlar noto'g'ri o'tkazilishining yana bir sababi uni o'tkazish qoidalarining talabga javob bera olmasligi yoki mukammal emasligi ham bo'lishi mumkin. "Halol" tenderning eng asosiy kafolati uning ochiqqligi va yagona tender o'tkazish qoidasining mavjudligidir. Ba'zi adabiyotlarda tenderlarni o'tkazish bosqichlari va ularda

qanday masalalar ko`rilishi kerakligi tavsiya etilgan. Masalan, shu sohada izlanishlar olib borgan Anna Nesmeyeva tenderni 7 bosqichga bo`lib tashkil etishni tavsiya etadi:

Birinchi bosqich — tender o`tkazish bo`yicha qaror qabul qilish.

Ikkinchi bosqich — tenderga taklifnomalarni tayyorlash.

Uchinchi bosqich — talabgorlarni tanlash.

To`rtinchi bosqich — talabgor tomonlarning qarashlarini aniqlash.

Beshinchi bosqich — talabgorlarning takliflarini ko`rib chiqish.

Oltinchi bosqich — tender g`olibini aniqlash.

Yettinchi bosqich — tender g`olibini e`lon qilish.

Ko`pgina davlatlarda yo`nalishlarda yo`lovchilar tashishni tashkil etishda eng yaxshi tashuvchilarni tanlash uchun ochiq tenderlarni o`tkazish qabul qilingan. Buning uchun ochiq tenderlarni tashkil etish tartibi va me`yorlari ishlab chiqilgan. Ammo tajribalar shuni ko`rsatadiki, bu boradagi hujjatlar haligacha yetarli darajada mukammal emas ekan. Masalan, Ukraina Respublikasining Lvov shahrida marshrutlarni taqsimlash uchun o`tkazilayotgan tenderlarni o`tkazish qoidalarini ko`rib chiqaylik. Bu shaharda bugungi kunda ham tadbirkorlik maqsadida yo`lovchilar tashish bilan shug`ullanishga jismoniy shaxslarga nafaqat ruxsat berilyapti, balki ular uchun keng imkoniyatlar (ular to`laydigan to`lovlar yagona to`lov bo`lib, daromadning atigi 10% ini tashkil etadi) yaratib berilgan. Bu respublikada tender talablari va takliflarini takomillashtirishga qaratilgan ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ularni baholash mezonlari ham ba`zi bir kamchiliklardan xoli emas. U yerda tender g`olibi 100 ballik sistema bo`yicha baholanadi. Ballanii aniqlashda malakaviy talablar majmuasiga harakatlanuvchi tarkibning texnik holati va da`vogarning ish staji kiritilgan, ammo uni aniqlash mezoni ishlab chiqilmagan. Shu bilan birga, tender qatnashchisi yo`l haqi tarifining miqdorini kamaytirishi yoki aho- lining ma`lum bir qatlamiga transportda yurishi uchun imtiyozlar berishi sababli to`plashi mumkin bo`lgan balining miqdorini oshirish imkoniyatiga ham egadir. Vazirlar Mahkamasining “Tender g`oliblarini aniqlash tartibi to`g`risida”gi 2003-yil 29-yanvardagi 139-sonli qaroriga ko`ra,

korxonaning moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab ball berilishi kichik korxonalarning tenderda yutib chiqish imkoniyatini pasaytirib yuboradi. Ukraina Respublikasining poytaxti Kiyey shahrining radasi ham transport vositalarining texnik holatiga katta ahamiyat beryapti. Radaning talabiga ko'ra tenderda dvigateli Yevro-2 va Yevro- 3 talablariga javob beradigan avtomobillaiga katta imtiyozlar beriladi.

Ba'zi davlatlarda tender g'oliblariga yo'nalishda yo'lovchilar tashish huquqini boshqa xo'jaliklarga topshirishiga ruxsat berishgan, bu esa vaqti kelib yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish huquqi butunlay begona xo'jaliklar tasarrufiga o'tib ketishiga olib kelishi mumkin.


Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tenderlarni muvaffaqiyatli va halol o'tkazish, undan kutilgan natijalarga erishish uchun tenderlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi ishlab chiqilishi va u davlat organlari tomonidan nazorat etilishi kerak ekan.

O'zbekiston Respublikasida bu sohada e'tirof etishga loyiq ishlar amalga oshirildi va oshirilib kelinyapti. Ochiq tenderlarni o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 17-avgustdagi 350-sonli, 2000-yil 18-fevraldagi Idoralararo komissiyaning tavsiyalari va 2006-yil 31-yanvardagi 11-sonli Qarorlari bunga dalil bo'la oladi.

Shahar atrofida, shaharlararo (viloyatlararo, viloyat ichida) va xalqaro yo'lovchilar tashish yo'nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tenderlarni tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi Nizom va uni qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar O'zbekiston Respublikasi Avtomobil va daryo transporti agentligi tamonidan tayyorlangan "Avtomobil va daryo transportini davlat tomonidan boshqarish, tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar" to'plamida to'liq bayon etilgan.

Toshkent shahrida yo'lovchilarni tashish yo'nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tenderlarni tashkil etish va o'tkazish ishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 31-yanvardagi 11-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshirilyapti.

Ushbu Nizomga ko'ra, Toshkent shahar hokimligi Yo'lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti ochiq tenderlar buyurtmachisi va tashkilotchisi hisoblanadi.



4-rasm. Ochiq tenderlarni tashkil etish va o'tkazish hamda kontraktlarni tuzish sxemasi.

Toshkent shahrida “Yo`lovchilar tashish yo`nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tenderlarni tashkil etish va o`tkazish to`g`risida”gi Nizom bir nechta bo`limdan tashkil topgan.

Nizomning birinchi bo`limi umumiy qoidalar deb nomlanadi. Unda Nizom Toshkent shahrida yo`lovchilar tashish yo`nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tenderlarni tashkil etish tartibi va ularni o`tkazish shartlarini belgilaydi hamda avtotransport vositalari bilan yo`lovchilar tashish uchun majburiy hisoblanadi, deb ta`kidlangan. Nizomda ko`cha-yo`l tarmog`ida ko`zda tutilmagan holatlar yuzaga kelganda, alohida uchastkalar, transport uzellari va maydonchalari yopilganda kiritiladigan vaqtinchalik yo`nalishlar bo`yicha, korxonalar, tashkilotlar buyurtmasi bo`yicha soatbay haq to`lash asosida, tashkilotlar xodimlarini ish va yashash joyiga tashish maxsus yo`nalishlar bo`yicha amalga oshiriladigan tashishlar tender asosida joylashtirilmasligi ko`rsatilgan.


Ushbu Nizomga ko`ra, tender savdolarida yuridik shaxs maqomiga ega bo`lgan ta`sis hujjatlari, moliyaviy ishtirok etish, xol- ding shaklida va boshqa shakllarda ifodalangan, bevosita bir-biri bilan tashkiliy-hududiy yoki moliyaviy bog`liq bo`lgan tashuvchi- larning muqobil talabgor sifatida ishtirok etishi mumkin.

Ochiq tenderlar Departament va tashuvchi o`rtasidagi yo`lovchilar tashishning amaldagi yo`nalishiga xizmat ko`rsatish bo`yicha shartnoma (kontrakt) tugaganda yoki muddatidan oldin bekor qilingan hollarda yoki yangi yo`nalishlar ochilganda tashkil etiladi va 5-rasmda ko`rsatilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Tenderga yo`nalishlar alohida-alohida yoki paketda qo`yiladi. Yo`nalishlar paketlarini shakllantirishda yo`nalishlarning ahamiyatliligi va ularning rentabelligi hisobga olinadi. Tenderda kamida ikkita qatnashchi mavjud bo`lishi, agar yo`nalishlar paketiga faqat bitta tashuvchi talabgor bo`lsa, tender o`tkazmasdan ushbu tashuv- chiga yo`nalishda ishlash huquqini berishga haqlidir.

Tenderda qatnashish uchun buyurtmalar bo`lmagan taqdirda Departament tenderni takror tashkil etishi kerak, bunda yo`nalishlar paketiga yoki yo`nalishga talablarni qayta ko`rib chiqishga yo`l qo`yiladi.


Tender hujjatlari paketi «Yo`nalishlarni joylashtirish uchun ochiq tenderlari tashkil etish va o`tkazish to`g`risida»gi Nizomni hamda quyidagilarni o`z ichiga oladi (6-rasm):



5-rasm. Tender hujjatlari paketi.

Tender qatnashchisi uchun yo`riqnomada ochiq tenderda qatnashish uchun bajarilishi kerak bo`lgan ishlar tartibi bayon etiladi. Masalan, avtobuslarning harakatdagi tarkibi rusumi (turi) ga qarab tabaqalashtirilgan shkalasi va uni aniqlash usuli.

Yuqorida keltirilgan yo`riqnoma asosida har bir tender qatnashchisi o`zining taklif etayotgan ko`rsatkichlarini hisoblab chiqadi. Tender takliflarida quyidagi ko`rsatkichlar ko`rsatilgan bo`lishi kerak (6-rasm).



6-rasm. Tender takliflari ko'rsatkichlari.

Qatnashchining tender takliflari shakli (namuna) quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

_____ -sonli _____ yo'nalishiga

TENDER TAKLIFLARI

1. Tenderga qo'yilgan yo'nalishda 1 nafar yo'lovchi uchun ishtirokchi tomonidan taklif etilgan tarif darajasi _____ so'm _____ tiyin

2. Harakatlanuvchi tarkibning rusumi, ishlab chiqarilgan yili, umumiy sig'imi:

T/r	Harakatlanuvchi tarkib rusumi	Davlat raqam belgisi	Ishlab chiqarilgan yili	Umumiy sig'imi
-----	-------------------------------	----------------------	-------------------------	----------------

1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				
8.				—
9.				
10.				
11.				
12.				

Yuqorida ko`rsatilgan avtotransport vositalarining barchasi tex- nik soz va litsenziya varaqalari bilan ta`minlangan.

3. _____ Avtotransport vositalari ish tartibining taklif etiladigan turi: ish boshlanish vaqti soat _____, tugash soatda.

4. Yo`nalishda taklif etiladigan jadval soni _____ ta.

5. Yo`nalishda taklif etiladigan qatnovlar soni _____ ta.

6. Yo`nalishdagi tig`iz vaqt o`rtasidagi qatnov oralig`i, ko`pi bilan ____ daqiqa.

7. Yo`nalishdagi tig`iz vaqtdagi qatnovlar oralig`i _____ daqiqa.

Qo`shimcha ma`lumotlar:

8. Avtomobillarni kundalik qatnov oldi texnik ko`rikdan, haydovchilarni tibbiy ko`rikdan o`tkazish.

9. Yong`in xavfsizligi bo`yicha ko`rilgan choralar.

10. Kunlik naqd pul tushumini inkassatsiya qilish.

11. Qatnovlarni nosozlik punkti orqali ro`yxatga olish.

Muhr o`rni

(vakolatli vakilning imzosi)

Quyida “Rudomaxyo`lovchiyuktrans” MCHJ tomonidan 75-yo`nalish uchun ishlab chiqilgan tender takliflari misol sifatida keltirilgan.

75 — “Qo`yliq Ml — Mahkamota choyxonasi”

TENDER TAKLIFLARI

1. Tenderga qo`yilgan yo`nalishda 1 nafar yo`lovchi uchun ishtirokchi tomonidan taklif etilgan tarif darajasi 700 so`m 00 tiyin.
2. Harakatlanuvchi tarkibning rusumi, ishlab chiqarilgan yil, umumiy sig`imi:

T/r	Harakatlanuvchi tarkib	Davlat raqami belgisi	Ishlab chiqarilgan yili	Umumiy sig`imi
1.	“GAZEL”	11 N 8266	2008	15
2.	“GAZEL”	30 S 2996	2006	15
3.	“GAZEL”	30 N0119	2005	15
4.	“GAZEL”	30 I 3877	2004	15
5.	“GAZEL”	30 F0241	2003	15
6.	“GAZEL”	10 Y3096	2001	15
7.	“GAZEL”	10 Z 8071	2001	15

Yuqorida ko`rsatilgan avtotransport vositalarining barchasi texnik soz va litsenziya varaqalari bilan ta`minlangan.

3. Avtotransport vositalari ish tartibining taklif etiladigan turi: ish boshlanish vaqti soat 6³⁰, tugashi soat 19⁰⁰da.

4. Yo`naUshda taklif etiladigan jadvalsoni 5 ta.

5. Yo`nalishda taklif etiladigan qatnovlari soni 60 ta.
6. Yo`nalishdagi tig`iz vaqt o`rtasidagi qatnovlar oralig`i, ko`pi bilan 17 daqiqa.
7. Yo`nalishdagi tig`iz vaqtdagi qatnovlar oralig`i 8 daqiqa.

Qo`shimcha ma`lumotlar:

8. Avtomobillar ertalabki texnik, haydovchilar esa tibbiy ko`rikdan SOGET bilan 2006-yil 4-aprel kuni tuzilgan shart-`nomaga asosan ijaraga olingan Toshkent shahar, Mirobod tumani, U. Olimbekov ko`chasi, 40-manzilda joylashgan hududdan «RUDOMAXYO`LOVCHIYUKTRANS» MCHJ nazoratchi mexanik va hamshira-narkologlar to- monidan o`tkaziladi.

Texnik ko`rikdan o`tkazishga avtoulovlar hududga kirib chi- qishi uchun xandaqlar qilingan, nazorat punkti talabga asosan jihozlangan. Tibbiy ko`rikdan o`tish xonasi ham talabga asosan jihozlangan, hamshira-narkologlar Toshkent shahar narkologiya bosh boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan maxsus kurslarni tugatganliklari to`g`risida maxsus sertifi- katga ega.

9. Avtotransport vositalari o`t o`chirgich, tibbiyot qutichalari (kerakli dori- darmonlar) va avariya belgilari bilan jihozlangan. Barcha transport vositalari lotin imlosida yozilgan peshtaxta bilan ta`minlangan. Haydovchilar orasida texnika xavfsizligi va yong`inga qarshi yo`riqnomalar o`tkazilgan.

10. Naqd pullarni qabul qilish va inkassatsiyaga topshirish bo`yicha 2006-yil 28-aprel kuni 25-sonli buyruq chiqarilgan. Toshkent shahar inkassatsiya boshqarmasi bilan naqd pullarni inkassa- tsiya qilish bo`yicha 2006-yil 6-iyun kuni shartnoma tuzilgan.

11. Yo`nalishda ishlaydigan transport vositalari «Qo`yliq M 1» avtoshoxobchalaridagi nozimlik punktidan ro`yxatdan o`tishi ta`minlanadi.

12. Yo`nalishdagi bir kunlik tushum — 200.000 so`m.

Muhr o`rni

(vakolatli vakilning imzosi)

Tender g`olibini tanlash uchun Toshkent shahar hokimligi, O`zbekiston Avtomobil va daryo transporti agentligi, «Toshshahar- transxizmat» uyushmasi, O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Davlat soliq qo`mitasi, Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash davlat qo`mitasi hamda Savdo-sanoat palatasining Toshkent shahri bo`linmalari mas`ul xodimlari kiritiladigan tender komissiyasi tuziladi. Tender komissiyasiga Departament boshlig`i boshchilik qiladi. G`olib oddiy ko`pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Agar tender qatnashchisi tenderga noto`g`ri ma`lumotlar berganligi aniqlansa, u tenderda qatna- shishdan chetlatiladi.

Tender takliflarini qabul qilish tender o`tkaziladigan kundan bir kun oldin to`xtatiladi.

Tender g`olibi tender takliflarida ko`rsatilgan bir nafar yo`lov- chiga yo`l haqi uchun tarif darajasi, avtotransport vositasining rusumi (klassi), ishlab chiqarilgan yili, transport vositasining sig`imi, ish vaqti, harakat intervali, qatnovlar soniga qarab tabaqalashtirilgan ballar bo`yicha aniqlanadi (ilovalarga qarang).

Nizomga 2-ILOVA

**Avtobuslarning harakatdagi tarkibi rusumi (turi) va uning
foydalanish yo`llari uchun ballarning**

TABAQALASHTIRILGAN SHKALASI

Avtobuslar yo`nalishlaridagi avtobusning rusumi (turi) uchun:

Rusumi (tipi)	Harakatdagi tarkib birligi uchun baliar soni
Mersedes-Benz (modifikatsiyasi)	10,0
Ikarus (modifikatsiyasi)	8,0

LAZ, LIAZ, DEU (modifikatsiyasi)	6,0
PAZ, OtayoH (modifikatsiyasi)	4,0
KAVZ (modifikatsiyasi)	2,0

Yo`nalishli taksi liniyalaridagi mikroavtobuslar va midibuslar rusumi (turi) uchun:

Rusumi (tipi)	Harakatdagi tarkib birligi uchun ballar soni
23 kishidan ortiq odam sig`adigan midibuslar	10,0
18 kishidan 23 kishigacha odam sig`adigan midibuslar	8,0
15 kishidan 18 kishigacha odam sig`adigan mikroavtobuslar	6,0
12 kishidan 15 kishigacha odam sig`adigan mikroavtobuslar	4,0
8 kishidan 12 kishigacha odam sig`adigan mikroavtobuslar	2,0

Nizomga 3-ILOVA

Tig`iz vaqtlarda harakatlanishning tavsiya etilayotgan oralig`i uchun ballarning TABAQALASHTIRILGAN SHKALASI

Harakatlanish oralig`i (daqiq)	Beriladigan ball	Oshirish koeffitsiyenti	Eng yuqori ball
1. Texnik-foydalanish parametrlari bo`yicha talab qilinadigan oraliq	5,0	X	X
2. Tavsiya etilayotgan oraliq daqiqa			

3. Oraliqni quyidagicha kamaytirganlik uchun:			
3 daqiqaga	5,0	1,05	5,25
6 daqiqaga	5,0	1,1	5,5
9 daqiqaga	5,0	1,15	5,75
12 daqiqaga	5,0	1,2	6,0
15 daqiqaga	5,0	1,5	7,5
15 daqiqadan ortiq	5,0	2,0	10,0

Izoh. Tig`iz vaqtlarda yo`nalishdagi harakatlanish oraliq`i aylanib chiqish vaqtini ishlayotgan avtobuslar soniga taqsimlash yo`li bilan aniqlanadi.

1. Hisoblab chiqish uchun misol:

	Yo`nalishga qo`yilgan talablar	Tashuvchi taklif etayotgani
A) tig`iz vaqtlar (soat 10 dan 17 gacha)	7 soat	7 soat
B) avtobusning aylanib chiqishiga ketgan vaqt	1 soat	1 soat
D) ishlayotgan avtobuslar soni	4 ta	5 ta
E) oraliq (daqiqa)	15 daqiqa	12 daqiqa

Oraliqni 3 daqiqaga kamaytirganlik uchun 5,25 ballda beriladi.

2. Harakatdagi tarkibdan foydalanish yo`llari:

Foydalanish yillari	Harakatdagi tarkib birligi uchun ballar soni
1-3 yil	10,0
3-5 yil	8,0
5-8 yil	6,0
8-10 yil	4,0
10 yildan ortiq	2,0

Izoh. Foydalanish yillariga ko'ra har bir transport vositasi bo'yicha aniqlangan ballar jamlanadi, so'ngra tashuvchi tomonidan tavsiya etilayotgan avtobuslar soniga taqsimlanadi.

Harakatdagi tarkibning umumiy sig'imi uchun (besh balli tizim):*

Harakatdagi tarkib rusumi	Pasport bo'yicha umumiy sig'im	Tuzatuvchi koeffitsiyent	1 ta harakatdagi tarkib uchun ballar soni
Hisoblab chiqish uchun misol:			
1. Texnik-foydalanish parametrlari darajasi bo'yicha bazaviy (talab qilinadigan) avtobus sifatida LAZ 695 avtobusi tavsiya qilinacji	62	1,0*	5,0
2. Tashuvchi tavsiya qilayotgan sig'imi:			
1-variant:	110	1,77*	8,85
2-variant:	37	0,6	3,0

*) Tuzatuvchi koeffitsiyent tavsiya etilayotgan sig'imni texnik-foydalanish parametrlari darajasi bo'yicha bazaviy avtobus sig'imiga (ushbu misolda-LAZ 695 avtobusi sig'imiga) taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi.

Agar tanlov natijalari bo'yicha bir nechta talabgor teng ball to'plagan bo'lsa, g'olib tender komissiyasi a'zolari tomonidan yashirin ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi. Tender natijalari komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi va g'olibga departament raisi yoki uning muovini tomonidan tasdiqlangan guvohnoma beriladi. Shundan so'ng tender g'olibi bilan Departament, ya'ni buyurtmachi o'rtasida yo'nalishda transport xizmatini ko'rsatish uchun kontrakt tuziladi.

3.2. Tashuvchi bilan buyurtmachi o`rtasida transport xizmatini ko`rsatish yuzasidan kontraktlar tuzish.

Tender g`olibi bilan Departament, ya`ni buyurtmachi o`rtasida yo`nalishda transport xizmatini ko`rsatish uchun kontrakt tuzishdan asosiy maqsad buyurtmachi bilan tashuvchi orasidagi majburiyatlarni, tomonlarning huquqlari, javobgarligi hamda boshqa kelgusida vujudga kelishi mumkin bo`lgan shartlarni oldindan aniq qilib kelishib olishdir.

Kontrakt lotincha ***contractus*** so`zidan olingan bo`lib, shartnoma, kelishuv ma`nosini anglatadi.

Kontraktda uni tuzuvchi tomonlarning nomi, kontrakt predmeti va amal qilish muddati ko`rsatiladi.

G`olib bilan tuzilgan kontraktni imzolash muddati tender o`tkazilgandan keyin 10 ish kunidan oshmasligi kerak. Departament tender komissiyasining qarori asosida tender g`olibi bilan (4-ilova) kamida 3 yil va ko`pi bilan 5 yil muddatga yo`nalishlarda shahar transportida yo`lovchilar tashish bo`yicha xizmatlar ko`rsatish yuzasidan kontrakt tuzadi. Kontrakt har bir yo`nalish uchun alohida-alohida tuziladi.

Yo`nalishda shahar transportida yo`lovchilar tashish bo`yicha xizmatlar ko`rsatish yuzasidan tuziladigan kontrakt 9 ta moddadan iborat bo`ladi. Kontraktning 1-moddasida uning predmeti, ya`ni yo`nalishida yo`lovchilarni tashish huquqi qachondan boshlab kuchga kirishi, yo`nalishning texnik-foydalanish ko`rsatkichlari va unga qo`yilgan talablar ko`rsatiladi, yo`nalishda necha dona va qanday rusumdagi harakatlanuvchi tarkibdan foydalanishi hamda ularga qo`yilgan talablar bayon etiladi.

Kontraktning 2-moddasida tomonlarning majburiyatlari sanab o`tiladi.

Bunda tashuvchi tomonidan aholiga yuqori sifatli transport xizmatini ko`rsatish va kontrakt shartlarini to`liq bajarish uchun buyurtmachiga qanday majburiyatlar yuklanishi sanab o`tiladi. Masalan, yo`lovchilar tashishning asosiy shartlari, harakat yo`nalishidagi o`zgarishlar to`g`risida tashuvchini oldindan ogohlantirish, tashuvchiga dispetcherlik xizmatini ko`rsatish va hokazo.

Kontraktda tashuvchiga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi: ^yo`lovchilarni sifatli tashishni va yuqori xizmat ko`rsatish madaniyatini, transport vositasini boshqarish huquqi yuzasidan tegishli toifaga, shuningdek, yo`lovchilar tashishda kamida 3 yil ish stajiga ega bo`lgan haydovchi kadrlar tanlashni ta`minlash; yo`nalishda yo`lovchilarni muntazam tashishni tashkil qilish va bajarish; belgilangan ish rejimiga rioya qilish; harakatdagi tarkibga o`z vaqtida texnik xizmat ko`rsatilishini, salon, harkatdagi tarkibni texnik ko`rikdan va haydovchilarni tibbiy ko`rikdan o`tkazishni ta`minlash va boshqalar.

Kontraktda yo`nalishdagi ish vaqtida haydovchilarga ushbu kontraktning nusxasiga, shaharda yo`lovchilar tashishni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya kartochkasiga, yo`nalish hujjatlariga, yo`l va chipta-hisob varaqasiga, liniyaga chiqishdan oldin yo`l varaqalarida avtotransport vositasining texnik ko`rikdan va haydovchilarning tibbiy ko`rikdan o`tganligi to`g`risidagi Harakatlanish jadvaliga va yo`nalish sxemasiga ega bo`lish; transportda tekin yoki imtiyozli yurish huquqidan foydalanuvchi yo`lovchilarni to`squinliksiz tashish va hokazo.

“Tomonlarning huquqlari” deb nomlanuvchi kontrakting 3-moddasida tashuvchiga buyurtmachiga yo`nalishni o`zgartirish yoki yopish, transport vositalarining rejadagi sonini, jadvallarni, ish rejimini qayta ko`rib chiqish, yo`lovchilar tashish tariflarini o`zgartirish bo`yicha asoslangan takliflar kiritish, yo`nalishning ko`cha-yo`l tarmog`i harakatlanish xavfsizligi yoki yo`lovchilar tashish talablari va shartlariga javob bermaydigan uchastkalarida yo`lovchilar tashishni bajarishni rad etish yoki to`xtatish huquqlari berilganligi, buyurtmachiga esa ushbu kontrakt shartlarining bajarilishini nazorat qilish, nazorat natijalari asosida, aniq qoida buzilishlarini ko`rsatgan holda dalolatnomalar (ma`lumotnomalar) tuzish, tashuvchiga aniqlangan qoida buzilishlarini bartaraf etish vazifasini yuklovchi qarorlar chiqarish, bunday qoida buzilishlarini bartaraf etish muddatlarini belgilash kabi huquqlar berilganligi qayd qilinadi.

4-modda. “Tomonlarning javobgarligi” deb nomlanadi va unda kontrakt shartlarini buzilganligi uchun tomonlarning barcha javobgarliklari sanab o`tiladi.

5-moddada. Tashuvchining kontrakt shartlarini bajarayotganligi to'g'risida hisobot berishi shartligi va hisobotning shaldi ko'rsatiladi.

Kontraktning 6-moddasida uni bekor qilish tartibi sanab o'tiladi.

Kontrakt shartlari, agar faoliyatning holatlari va shartlari obyektiv ravishda o'zgarsa, tomonlardan birining taklifiga ko'ra qayta ko'rib chiqilishi mumkinligi, muddati kabi masalalar kontraktning 7-moddasida bayon etiladi.

Kontraktning amal qilish muddati, unga ilova qilinayotgan hujjatlar kontraktning 8 va 9-moddalarida sanab o'tiladi.

Kontrakt tomonlarning yuridik manzillari, rekvizitlarini ko'r- satish uni tuzuvchilarning imzolari hamda imzoni tasdiqlovchi tamg'a bilan rasmiylashtiriladi va kuchga kirgan hisoblanadi:

Toshkent shahrida yo'lovchilar tashish yo'nalishlarini joylashtirish uchun
ochiq tenderlarni tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi Nizomga

4-ilova

(yo'nalishning nomi)

yo'nalishida shahar transportida yo'lovchilar tashish bo'yicha xizmatlar
ko'rsatish yuzasidan **NAMUNAVIY KONTRAKT**

_____ 20 __-yil “_____” Toshkent shahri

Tender komissiyasi qarori asosida Toshkent shahar hokimligi Yo'lovchi
tashish transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish
departamenti nomidan keyingi

o'rinlarda “Buyurtmachi” deb ataladigan boshliq_____ bir
tomondan va keyingi o'rinlarda “Tashuvchi” deb ataladigan kor-
xona nomidan _____ rahbar ikkinchi tomondan ushbu kontraktni
quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1-modda. Kontrakt predmeti

1.1. 20 -yil « » dan boshlab «Buyurtmachi»

«Tashuvchi»ga -son avtobus/mikroavtobus yo`nalishi bo`yicha ushbu kontraktga kelishilgan shartlarda yo`lovchilar tashishni tashkil etish va amalga oshirish mutlaq huquqini beradi (yo`nalish- ning texnik-foydalanish tavsifi va unga qo`yiladigan talablar 1-ilovada, yo`nalish sxemasi - 2-ilovada ko`rsatilgan).

2. _____ Yo`nalishda yo`lovchilar tashish uchun «Tashuvchi» chap tomonli boshqaruvi hamda yo`lovchilar uchun o`ng tomonda joylashgan hamda yo`lovchilarni chiqarish va tu- shirish uchun qulaylikni ta`minlovchi eshiklari bo`lgan quyidagi ___ ta avtobus/mikroavtobusdan foydalanadi:

T/r	Avtobuslar/mikro- avtobuslar rusumi	Davlat raqami	O`rindiqlar sig`imi	Umumiy sig`im
1.				
2.				
3.va h.k.				

2-modda. Tomonlarning majburiyatlari

2.1. «Buyurtmachi» quyidagilarga majbur: «Tashuvchi»ni yo`lovchi tashishlarning asosiy shartlari, harakatlanish yo`nalishi va hokazolardagi o`zgarishlar to`g`risida ol- dindan (qoidaga ko`ra, ikki hafta oldin) xabardor qilish;

«Tashuvchi»ga transportda tekin yoki imtiyozii yurish huquqiga ega bo`lgan yo`lovchilar toifalari ro`yxatini taqdim etish;

shahar yo`nalishlarida yo`lovchi transportining bir maromdagi faoliyatini ta`minlash ishlarini muvofiqlashtirish;

«Tashuvchi»ga dispetcherlik xizmatlari ko`rsatish, 3-ilovaga muvofiq shakl bo`yicha nazorat-dispetcherlik hujjatlarini yuritish;

bir oy muddatda «Tashuvchi»dan harakatlanish oraliqlarini, avtobuslar, mikroavtobusniig kattaligi va miqdorini, tariflarni o`z- gartirish yo`li bilan tashishlar samaradorligini oshirish masalalari bo`yicha tushgan takliflarni ko`rib chiqish hamda unga asoslangan yozma javob berish;

yo`lovchi tashish transporti ishi yuzasidan shikoyatlarni ko`rib chiqish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo`yicha ta`sirchan chora-tadbirlar ko`rish;

transportda tekin yurish huquqidan foydalanuvchi yo`lovchilarni tashish bilan bog`liq daromadlar kamayishini qoplash, shu- ningdek, tariflarning cheklangan darajalari qo`llanilishi munosabati bilan ko`riladigan zararlarni qoplash masalasini vakolatli organlar bilan birgalikda hal etish;

transportda yurish kartochkalarini sotishdan tushgan daromad- larni, mulkchilik shakllaridan qat`i nazar, tashuvchilar o`rtasida qonunchilik talablariga muvofiq taqsimlash;

tashish jarayonini tashkil etishda, ko`cha-yo`l tarmoqlarining harakatlanish xavfsizligi talablariga javob beradigan zarur holatda bo`lishini ta`minlashda yordam ko`rsatish.

2.2. «Tashuvchi» quyidagilarga majbur:

yo`lovchilarni sifatli tashishni va yuqori xizmat ko`rsatish madaniyatini, transport vositasini boshqarish huquqi yuzasidan tegishli toifaga, shuningdek, yo`lovchilar tashishda kamida 3 yil ish stajiga ega bo`lgan haydovchi kadrlar tanlashni ta`minlash;

ushbu kontraktning butun amal qilish muddati mobaynida transport xizmati ko`rsatish uchun birkirilgan yo`nalishda yo`lovchilarni muntazam tashishni tashkil qilish va bajarish;

soat-daqiqadan soat-daqiqagacha belgilangan ish rejimiga rioya qilish;

harakatlanishning belgilangan jadvallariga muvofiq jadvalini va reyslarini ta`minlash (avtobuslar/mikroavtobuslarning ish jad- vali shakli namunasi 4-ilovada berilgan);

bir martalik chiptalarni sotish yo`li bilan tushumlar yig`ishni va ularni kunduzgi va kechki vaqtlarda inkassatsiya qilishni ta`minlash;

yo'lovchilar tashishga 1 nafar yo'lovchi uchun so'm miqdoridagi tarifni qo'llash;

reyslar, yo'lovchilar soni, daromadlar yig'imi bajarilishi tahlili va hisobini, yo'l-transport hodisalari hisobini yuritish hamda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlash tadbirlarining bajari-lishini nazorat qilish;

harakatdagi tarkibga o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatilishini, salon, harakatdagi tarkibni texnik ko'rikdan va haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishni ta'minlash;

zarur shart-sharoitlarga (texnik diagnostika uchun asbob-us-kunalar, ko'tarish moslamalari yoki ko'zdan kechirish xandaqlari, nazorat-o'lchash priborlari, asfalt yoki beton qoplamali tekis gorizontal maydonchaga) va malakali mutaxassislariga ega bo'lgan tashkilotlarda; texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarida; diagnostika stansiyalarida va Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati texnik nazorat postlarida yo'lovchi tashish transportini texnik ko'rikdan o'tkazishni o'z vaqtida tashkil etish;

yo'lovchilar tashish uchun belgilangan talablarga muvofiq bo'lgan harakatlanuvchi tarkibdan foydalanish;

har qaysi transport birligi salonida ko'rinarli joyda haydovchi (famiyasi, ismi, otasining ismi) to'g'risidagi ma'lumotlarni, Yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalaridan ko'chirmani, markaziy dispetcherlik xizmati, «Tashuvchi»telefonlari raqamlarini, yo'l haqi tariflarini, transportda tekin va imtiyozli yurish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxatini, yo'l-transport hodisasi ro'y bergan taqdirda avtobus salonida luklarni, oynalarni, eshiklarni shoshilinch ochish va oynalarni ko'chirish usullari to'g'risidagi ko'rgazmali ma'lumotlarni, o't o'chirish anjomlari va aptechkalarni joylashtirish, avariya vaqtidagi chiqish joylarini ko'rsatish;

«Buyurtmachi»ga dispetcherlik punkti orqali yo'nalishning ko'cha-yo'l tarmoqlarining harakatlanish yoki yo'lovchilar tashish xavfsizligi talablari va shartlariga javob bermaydigan uchastkalaridagi mavjud to'siqlar to'g'risida o'z vaqtida xabar qilish.

2.3. Yo'nalishdagi ish vaqtida haydovchilar quyidagilarga majbur:

ushbu kontraktning nusxasiga, shaharda yo'lovchilar tashishni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya kartochkasiga, yo'nalish hujjatlariga, yo'l va chipta-hisob varaqasiga, liniyaga chiqishdan oldin yo'l varaqalarida avtotransport vositasining texnik ko'rikdan va haydovchilarning tibbiy ko'rikdan o'tganligi to'g'ri- sidagi harakatlanish jadvaliga va yo'nalish sxemasiga ega bo'lish;

transportda tekin yoki imtiyozli yurish huquqidan foydalanuvchi yo'lovchilarni to'sqinliksiz tashish;

harakatlanish jadvaliga rioya qilish va «Buyurtmachi»ning liniya-dispatcherlik punktlarida, sotilgan chiptalar sonini ko'rsatgan holda, reyslar bo'yicha qaydlarni amalga oshirish;

yo'lovchilarga har bir to'xtash joyi va undan keyingi punkt nomini to'g'ri va aniq e'lon qilish, yo'nalish o'zgargan taqdirda esa — bu to'g'rida har bir bekatda e'lon ilish, yo'lovchilarga avtobus/ mikroavtobus salonida xulq-atvor qoidalariga rioya qilish hamda yo'l va bagaj haqini o'z vaqtida to'lash zarurligi to'g'risida eslatish;

yo'lovchilarni faqat yo'nalishning to'xtash punktlarida transportga chiqarish va undan tushirish (to'xtash punktlarida transportga chiqarish va undan tushirish yo'lovchilar talabi bo'yicha amalga oshiriladigan yo'nalishli taksilardan tashqari);

salonda spirtli ichimliklar ichishga, chekishga, transport vositasi ishlayotgan vaqtda paydo bo'ladigan noxush hidlarning bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;

transport vositasi tizimlarida va mexanizmlarida avtobus/mikroavtobuslardan keyingi foydalanish chog'ida harakatlanish xavfsizligiga xavf tug'diradigan texnik nosozliklar mavjud bo'lgan holiarda avtobus/mikroavtobusni to'xtatish, barcha eshiklarini ochish, zarurat bo'lganda esa avariya luklarini ham ochish, salon- dan yo'lovchilarni tushirish, ularni ushbu yo'nalishda qatnaydigan boshqa avtobus/mikroavtobusga aynan shu chiptalar bilan chiqarish;

«Buyurtmachi»ning hamda tekshirish va ko'rikdan o'tkazish uchun tegishli vakolatlari bo'lgan nazorat organlarining birinchi talabiga ko'ra transport vositasini

ko`zdan kechirishga ruxsatno- masi bo`lgan shaxsga zarur ma`lumotlarni taqdim etish va yordam ko`rsatish;

yo`lovchilar uchun biron-bir noqulaylik tug`dirmasdan ularga yo`l chiptalari sotish;

Yo`l harakati qoidalariga, Avtomobil transportida yo`lovchilar va bagajrii tashish qoidalariga hamda O`zbekiston Respublikasida avtobuslarda yo`lovchilar tashish xavfsizligini ta`minlashga doir talablarga rioya qilish.

2.4. Ko`rsatilgan dispetcherlik xizmatlari va shahar yo`lovchi tashish transporti infratuzilmasi obyektlari (avtostansiyalar, to`x- tash punktlari)dan foydalanganligi uchun «Tashuvchi» har oyda so`m miqdorida haq to`laydi. Pul mablag`lari «Buyurtmachi»ning hisob raqamiga hisobot oyidan keyingi oyning 5-ku- nidan kechikmay o`tkaziladi.

3-modda. Tomonlarning huquqlari

1. «Tashuvchi» quyidagi huquqlarga ega:

«Buyurtmachi»ga yo`nalishni o`zgartirish yoki yopish, transport vositalarining rejadagi sonini, jadvallarni, ish rejimini qayta ko`rib chiqish, yo`lovchilar tashish tariflarini o`zgartirish bo`yicha asoslangan takliflar kiritish;

yo`nalishning ko`cha-yo`l tarmog`i harakatlanish xavfsizligi yoki yo`lovchilar tashish talablari va shartlariga javob bermaydi- gan uchastkalarida yo`lovchilar tashishni bajarishni rad etish yoki to`xtatish;

«Buyurtmachi» bilan kelishuv bo`yicha avtotransport vosita- sini, tegishli litsenziya kartochkasi bilan ta`minlagan holda, ay- nan shunday avtomobil bilan almashtirish;

belgilangan tartibga muvofiq yo`l kartochkalarini sotishdan daromad olish va transportda tekin yoki imtiyozli yurish huquqidan foydalanuvchi yo`lovchilarni tashish munosabati bilan yo`- qotilgan daromadlar uchun kompensatsiya olish;

tashish jarayonini tashkil etish bo`yicha zarur shart-sharoitlar ta`minlanishini talab qilish.

2. «Tashuvchi» yo`nalishga xizmat ko`rsatishni uchinchi shaxsga berish huquqiga ega emas.

3. «Buyurtmachi» quyidagi huquqlarga ega:

yo`nalishlarga xizmat ko`rsatish huquqlarini xizmat ko`rsatish

huquqini yo`qotgan bitta tashuvchidan tender asosida belgilana- digan boshqa tashuvchiga berish o`rtasidagi davrda ko`rsatib o`til- gan yo`nalishlarga (tendersiz) to`liq yoxud qisman xizmat ko`rsatish huquqini boshqa tashuvchilarga vaqtinchalik berish;

ushbu kontrakt shartlarining bajarilishini nazorat qilish, nazorat natijalari asosida, aniq qoida buzilishlarini ko`rsatgan holda dalolatnomalar (ma`lumotnomalar) tuzish, «Tashuvchi»ga aniq- langan qoida buzilishlarini bartaraf etish vazifasini yuklovchi qarorlar chiqarish, bunday qoida buzilishlarini bartaraf etish muddatlarini belgilash;

davlat tegishli organlariga transport vositalaridan foydalanish qoidalari buzilishida aybdor bo`lgan «Tashuvchi»ni qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlikka tortish to`g`risida takliflar kiritish.

4-modda. Tomonlarning javobgarligi

4.1. «Buyurtmachi» «Tashuvchi»ni yo`nalishlarda ishlash uchun zarur sharoitlar bilan ta`minlash, ko`cha-yo`l tarmog`ining holati tufayli yo`nalishlarda tashuvlarning to`xtatilishi yoki cheklanishi sabablarini bartaraf etish yuzasidan o`z vaqtida chora-tadbirlar ko`rilmaganligi, ko`chalarning «Tashuvchi» bilan oldindan kelishil- masdan to`silganligi uchun ko`rilgan zarar miqdorida javob beradi.

4.2. «Tashuvchi» tomonidan ushbu tender kontrakti shartlarining buzilishi holatlari yuzasidan «Buyurtmachi» ko`rilgan moddiy va ma`naviy zararni qoplash to`g`risida sud organlariga da`vo bilan murojaat qilishi mumkin.

5-modda.

Tashuvchining hisobot berishi

5. «Tashuvchi» har oyda «Buyurtmachi»ga ushbu kontraktga 5-ilovaga muvofiq shakl bo`yicha yo`nalishlardagi ishlar to`g`risida hisobot taqdim etishi shart.

6. modda.

Kontraktni bekor qilish tartibi

6.1. Agar tomonlardan biri kontrakt shartlarini buzsa va ik- kinchi tomon ularni bartaraf etishning muddatini belgilasa, biroq ushbu muddat o'tgandan keyin kontraktni buzgan tomonning majburiyatlari bajarilmagan bo'lsa, kontrakt bir tomonlama tar tibda muddatidan oldin bekor qilinadi.

6.2. Kontraktning amal qilish muddati tugaganda yoki kontrakt muddatidan oldin bekor qilinganda «Tashuvchi» yo'nalishni o'z avtotransport vositalaridan mazkur yo'nalishda ishlash huquqini yutgan boshqa tashuvchiga kontrakt beriladigan kundan kechikmay bo'shatishi shart.

6.3. Tomonlar kontraktning bekor qilinishi sanasi yoki uning amal qilish muddati tugaganligi to'g'risida kamida 10 kalendar kun oldin yozma ravishda bir-birini xabardor qilishlari shart.

7-modda. Boshqa shartlar

7.1. Kontrakt shartlari, agar faoliyatning holatlari va shartlari obyektiv ravishda o'zgarsa, tomonlardan binning taklifiga ko'ra qayta e'tib chiqilishi mumkin. Taklif etilayotgan o'zgartirishlar to'g'risidagi qarorni tomonlar yozma bildirishnoma olingan kun- dan boshlab ikki hafta mobaynida qabul qilishadi.

7.2. «Tashuvchi» tomonidan kontrakt shartlariga butun mud- dat mobaynida amal qilingan taqdirda, uning muddati uzaytiriladi, lekin ko'pi bilan uch yilga uzaytiriladi.

7.3. Favqulodda holatlar (zilzilalar, suv toshqinlari, yong'inlar, epidemiyalar va boshqa tabiiy ofatlar) paydo bo'lganda hamda tomonlardan istalgan birining ushbu kontrakt bo'yicha majburiyat- larni to'liq yoki qisman bajarish imkoniyati bo'lmaganda, ularni bajarish muddati bunday holatlar davom etadigan muddatga teng vaqtga uzaytiriladi va bu muddatda tomonlar kontrakt majburiyat- lari bo'yicha javobgarlikdan ozod qilinadi.

7.4. Agar favqulodda holatlar 60 kundan ko'proq davom etsa, u holda tomonlardan har biri ushbu kontrakt bo'yicha majburiyatlarni bundan keyin bajarishdan voz kechish huquqiga ega bo'ladi hamda bu holda ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni boshqa tomon hisobiga qoplash huquqiga ega bo'lmaydi.

7.5. Ushbu kontrakt dan yoki u bilan bog`liq holda kelib chiqadigan tomonlar o`rtasidagi barcha nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar yo`li bilan hal qilinadi.

Agar tomonlar muzokaralar yo`li bilan kelishuvga erishmasa, u holda nizo va kelishmovchiliklar sud tartibida hal etiladi.

8-modda. Kontraktning amal qilish muddati

8.1. _____ Ushbu kontrakt tomonlar uni imzolagan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va ____ mobaynida amal qiladi.

8.2. Ushbu kontrakt bir xil yuridik kuchga ega bo`lgan 2 nus- xada, tomonlardan har biri uchun bir nusxadan tuziladi.

9-modda. Kontraktga ilova qilinayotgan hujjatlar

9. Quyidagilar kontraktning uzviy qismi hisoblanadi: yo`nalishning texnik- foydalanish tavsifi va unga qo`yiladigan talablar (1-ilova);

yo`nalish sxemasi (2-ilova);

son yo`nalishdagi ishlar ustidan har kungi dispetcherlik na- zorati shakli (3-ilova);

son yo`nalish bo`yicha avtobus/mikroavtobuslarning ish jad- vali (4-ilova);

ishlar to`g`risidagi hisobot shakli (5-ilova).

Tomonlarning yuridik manzillari, rekvizitlari va imzolari:

«Tashuvchi»

«Buyurtmachi»

Yuridik maslahatchi:

4. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI QISMI

4.1. Magistral yo`llarda haydovchilar xavfsizligini ta`minlash usullarini tashkil qilish.

Respublikamizning iqtisodiy sanoati va ijtimoiy hayotida avtomobil transportiga bo`lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda avtomobillashtirishning o`ssishi harakatlanish xavfsizligini ta`minlash uchun malakali mutaxassilar va haydovchilar tayyorlashni taqazo etmoqda. Haydovchi o`z faoliyatida yo`llarda transport vositalarining harakatlanishini ta`minlashi va o`z vaqtida avtomobilni boshqarishda kabinada qulay sharoit bo`lishi, ishonchli, ortiqcha zo`riqlarsiz, mexnat gigenasi talabi darajasida, boshqaruv organlarini (rul, tormoz) soz bo`lishi, yoritish tizimini benuqson ishlashi, har-xil ob-havo sharoitida yurish uchun fooydalaniladigan moslamalarni bo`lishi hamda ishlashi, avtomobil salonida jarohat olish uchun xavfli bo`lgan buyumlarni bo`lmasligi, o`tkir hidli, yonuvchi portlovchi moddalarni bo`lmasligi magistral yo`llarda harakatlanayotgan haydovchilarni xavfsizligini ta`minlashda kafolat beradi [16].

O`zbekiston Respublikasining qonuni “Mexnatni muhofaza qilish to`g`risida”.

Ushbu qonun 1993-yil 22-maydan qonun kuchga kirgan.

1-modda. Fuqarolarning mexnatni muhofaza qilinishga bo`lgan huquqlari.

O`zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo`lmagan shaxslar mexnatni muhofaza qilinishi huquqiga egadirlar.

Ushbu qonunning kuchi barcha mulk shaklidagi tashkilot va korxona hodimlarini, shuningdek ishlab chiqarish amaliyotini o`tayotgan talabalar, o`quvchilarni, korxonaga ishga jalb etiladigan harbiy xizmatchilar, sud hukmi bilan jazoni o`tayotgan shaxslar va hokazolarni jalb etadi.

Shu bilan birga qonun o`zining ustuvorligini belgilab, xavfsiz texnologiya va himoyalash vositalarini ishlab chiqilishi va joriy etilishini, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy tomonlarini rag`batlantirib, ishlab chiqarish faoliyati mashinalarga nisbatan hodimning hayoti va sog`ligi ustuvorligini birinch o`ringa qoyadi.

2-modda. Mexnatni muhofaza qilish.

Mehnatni muhofaza qilish-bu tegishli qonun va boshqa me`yoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi, insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta`minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigena va davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat.

Yo`l xarakati qoidalaridan.

Avtomagistral-transport vositalarining yuqori tezligi va xavfsiz xarakatlanishini ta`minlovchi yo`l bo`lib, 5.1 (yashil rangdagi) belgi bilanbelgilanadi. Avtomagistraldagi barcha axborot ishora belgilari yashil rangda bo`ladi.

Avtomobillarda harakatlanish

Avtomagistrallarda quyidagilar taqiqlanadi:

- piyodalar, uy hayvonlari, ot-aravalar, velosipedlar, mopedlar, traktorlar va o`ziyurar mashinalar, texnik tavsifnomasiga yoki holatiga ko`ra tezligi soatiga 40 kilometrdan kam bo`lgan transport vositalarining harakatlanishi;
- ruxsat etilgan to`la vazni 3,5 tonnadan ortiq bo`lgan yuk avtomobillarining birinchi va ikkinchi bo`laklaridan boshqa bo`laklarda xarakatlanishi;
- 5.15 yoki 6.11 belgilari bilan belgilangan maxsus to`xtab turish maydonchalaridan boshqa joylarda to`xtash;
- ajratuvchi bo`lakning texnologik uzilish joylariga kirish va qayrilib olish;
- orqaga harakatlanish;
- transport vositasini o`rganish uchun boshqarish.

Avtotransportlarda yuqori tezlikni ta`minlash uchun sekin yurib xarakatga to`squinlik qiladigan transport vositalarining xarakatlanishi va transport oqimining tezligiga salbiy ta`sir etuvchi ba`zi manyovr va xarakatlar taqiqlanadi.

Qatnov qismida majburiy to`xtaganda haydovchi transport vositasini Qoidalarining 9-bobi talablariga muvofiq belgilashi va bunday holatlar uchun

mo'ljallangan bo'lakka (qatnov qismining chetini bildiruvchi chiziqdan o'ng tomonga) olib chiqishning barcha choralarini ko'rishi kerak.

Haydovchilarning ish rejimlari.

Haydovchining ish vaqti uning avtomobilni boshqarish, ishga chiqishga tayyorgarlik ko'rish va ish nihoyasidagi operatsiyalarga sarf qilingan (avtomobilni qabul qilish va topshirish, yonilg'i quyish, hujjatlarni rasmiylashtirish va boshqa), sog'liqni tibbiy tekshirish vaqtlari yig'indisidan iborat.

Haydovchi magistral yo'llarda xarakatlanuvchi marshrutda smena davomida bir o'zi yoki boshqa haydovchilar bilan almashib ishlashi mumkin. Haydovchilar almashuvi usulida ular belgilangan grafik bo'yicha kun davomida almashinib ishlaydilar. Har 3-4 soatda 0,5-1 soat va 10-12 soatli ishdan so'ng dam olishi shuningdek 6 soatgacha uxlashishi belgilangan [16].

Transport ishi hafta davomida uzluksiz bo'lishini hisobga olganda 5 kunlik ish rejimiga binoan har 5 avtomobilga 7 ta haydovchi, agar avtomobil ikki smena ishlaydigan bolsa 14 nafar haydovchi zarur bo'ladi. Haydovchilarni almashib ishlashlari sababli avtomobillar holatiga qarovga javobgarlik xissi pasayadi. Lekin aytilganga qaramay, ishni uzluksiz almashuvchi haydovchilar bilan tashkil etish ilg'or (progressiv) bo'lib, avtomobillardan uzluksiz (haftani 7 kunida) foydalanish imkoni yaratiladi.

Magistral yo'llarda haydovchilar havfsizligini ta'minlash usullari.

Haydovchilar havfsizligini ta'minlash usullari quyidagilardan iborat:

- haydovchilar yo'nalishda ishlayotgan davrida spirtli ichimlik, pul boshqaruvini begona shaxslarga bermasligi, o'z boshimchalik bilan yuk tashish yo'nalishini o'zgartirmasligi, yo'l xarakati qoidalarini buzmasligi, avtomobilni o'lchov-nazorat priborlarini kuzatib borishi, rul va tormoz mexanizmlarini ishlashiga doimiy e'tabor berib borishi zarur;
- avtomobilni kabinasi va kuzuviga qoidada belgilangandan ortiq odam olib yurmaslik, samosval avtomobillarini kuzuviga odam chiqarmaslik;
- haydovchilar kunni qorong'ulik davrida quyidagilarga amal qilishi ya'ni yaqinni yorituvchi faradan yoki gabarit chiroqdan foydalanish;

➤ yo`lda ro`paradan kelayotgan transportga nisbatan yaqinni yorituvchi farada yurishi, ko`zni yorug`lik olish holati sezilsa tezlikni pasaytirib zarur bo`lsa avtomobilni to`xtatish va gabarit chiroqlarni yoqib boshqa havfsizlik chiroq va moslamalardan foydalanish;

➤ ko`rinish 300 metrdan oz bo`lsa, tuman, yomg`ir, qor, chang tuzon bo`lganda tezlikni kamaytirib yaqinni yorituvchi farada yurishi yoki tumanga qarshi faradan foydalanish.

Magistral yo`llarda avtopoyezdlarda harakatlanganda alohida havfsizlik talablariga amal qilish zarur:

➤ tirkamalarni ulovchi va o`zgartiruvchi (uzuvchi) ishchi haydovchi bo`lishi;

➤ tirkamalarni uzilishini, chiqib ketishini oldini oluvchi buksir, tros-saqlagichlar bo`lishi;

➤ tirkamalarni tormoz tizimini gidravlik va havo quvurlarini ulanishi soz bo`lishi, yoritish chiroqlarini simlari tartibli ulangan bo`lishi.

Avtomobillarni tog`li yo`llarda xarakatlanayotganida quyidagi havfsizlik qoidalariga amal qilishlari kerak:

➤ g`ildiraklarga to`xtaganda qo`yiladigan tirgagichlar-bashmak (2 donadan kam bo`lmasligi), kozelonlar va qattiq buksir moslamasi;

➤ haydovchiga tog`li yo`llarda yuk bilan yurish uchun qo`shimcha yo`riqnoma (instruksiya berilgan bo`lishi);

➤ tog`li yo`llarda yuk bilan yurishga malakali haydovchilarni jalb qilish shuningdek rul, tormoz va uzatmalar qutisidan foydalanish tartibini mukammal bilgan bo`lishi.

5. IQTISODIY QISM

5.1. Avtougryushma qoshida avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatish texnologiyasini iqtisodiy tahlili.

Avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatuvchi korxonani yillik ishlab chiqarish dasturini tuzish.

Avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatuvchi korxonada yil davomida  $N_a$  ta avtomobillarga kompleks texnik xizmat ko`rsatish, saqlash, yangi avtomobillarni sotish ishlari bajariladi. Ko`rsatilgan xizmatlardan daromad olinadi. Korxonaning asosiy faoliyati turli turdagi avtomobillarga texnik xizmat va joriy ta`mir ishlaridir. Ushbu ishlarni yillik daromad hajmi, tannarhi, foyda va tarif hisoblanadi. Sotish va saqlashdan olingan daromad va sof foydalar hajmi hisoblanadi. Avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatuvchi korxona uchun asosiy va aylanma fondlarning qiymatlari aniqlanadi.

Avtomobillarga kompleks texnik xizmat va joriy ta`mirdan olinadigan yillik daromad tartibidagi barcha ko`rsatkichlarni hisoblash [17].

Daromad tarkibi:

- asosiy va yordamchi ishchilarni oylik maoshlari,
- sug`urta ajratmasi,
- jihoz va saroy uskunalar amortizatsiyasi,
- elektro – energiya sarfi,
- gaz sarfi,
- materiallar sarfi,
- xo`jalik harajatlari sarfi,
- tannarhi,
- foyda va to`lovlar,
- hisobdagi narh.

Ishlab chiqarish ish harajatlarini hisoblash.**O`rtacha razryadni topish.**

2-jadval

Ishchilar	Razryad	
	Postda 4-razryad	Ustaxonada 5-razryad
Avtomobil agregatlari va detallarini remonti	2	3

Turli razryaddagi ishchilar soni.

$$\sum N = 5$$

1. Ishchilarning o`rtacha toifasini aniqlash.

$$P_{o'r} = \sum(N \cdot P) / \sum N = 5,20$$

2. Asosiy ish haqini hisoblash.

$$C_{ich} = T_{um} \cdot C_T \cdot K_{ch} = 6997058,82 \quad \text{so`m}$$

T_{um} - umumiy mehnat sig`imi, ishchi soat, 1525

C_T - bir soatga maosh to`lov tarifi, 3823,529

K_{ch} - rejani ajratib bajarilganini hisobga oluvchi koeffisient. 1,2

$$C_T = M/F = 3823,53 \quad \text{so`m}$$

M - oylik maosh, o`rtacha razryad uchun (6000-7000 m.so`m) 650000

F - ishchilarning oylik balans soati (160-170 soat) 170

3. Ijtimoiy sug`urta ajratmasi.

$$C_c = C_{ich} \cdot 0,4 = 2798823,529 \quad \text{so`m}$$

4. Amartizatsiya ajratmasi.

$$C_{om} = \sum F_{oc} \cdot 0,05 = 2701520 \quad \text{so`m}$$

K - binolar, jihozlar, dastgohlar qiymati.

$$\sum F_{oc} = K = 54030400 \quad \text{so`m}$$

$$K = C_{zd} + C_j = 54030400 \quad \text{so`m}$$

C_j - jihoz, dastgoh, asboblar o`rtacha qiymati, ming so`m hisobida.

$$C_j = 25000000 \quad \text{so`m}$$

C_{zd} - bino, inshootlar qiymati, ming so`m hisobida.

$$C_{zd} = f_{ko'r} \cdot S_{ko'r} = 29030400 \quad \text{so`m}$$

$$f_{ko'r} = 36 \text{ kv.metr}$$

$S_{ko'r}$ - 1 m.kv bino ijara uchun sarflar (22,4 ming so`m)

$$S_{ko'r} = 806400 \text{ so`m}$$

5. Elektr sarfi.

$$C_{el} = H_{ust} * K1 * K2 * F * S * N_f = 26239307,06 \text{ so`m}$$

H_{ust} - bitta avtomobil uchun elektr-energiya sarfi; 0,076-0,081 kVt/avt.

$$H_{ust} = 0,081 \text{ kVt/avt}$$

$K1 * K2$ - vaqt va quvvat bo'yicha dvigateldan foydalanish koefitsiyenti; 0,7

$$K1 * K2 = 0,7$$

$$F = 2555$$

S - 1 kVt elektr energiya narhi;

$$S = 241,5$$

N_f - ATXKS dan foydalanadigan yillik avtomobillar soni, ta;

$$N_f = 750$$

F - yillik ish balans soati quyidagi ifoda orqali topiladi.

$$F = D_r * T_c * n = 2555$$

D_r - yildagi ish kunlar soni;

$$D_r = 365$$

T_c - smena ish davomiyligi, soat;

$$T_c = 7$$

n - smenalar soni;

$$n = 1$$

6. Gaz sarfi.

$$C_{gaz} = H_{gaz} * N_f = 1200000 \text{ so`m}$$

H_{gaz} - bitta avtomobilga gaz sarfi me`yori.

$$H_{gaz} = 1600 \text{ so`m}$$

$$N_f = 750 \text{ ta}$$

7. Material sarfi.

$$C_M = N_d * H_d + N_T * H_T = 11250000 \text{ so`m}$$

N_d, N_T - turli turdagi xizmat ko`rsatiladigan avtomobillar soni;

$$N_{yengil} = 750$$

H_d, H_T - materiallar sarfi, me`yori; 1000 km bosib o`tilgan yo`l uchun, so`m.

$$H_{yengil} = 15000 \text{ so`m}$$

8. Xo`jalik xarajati sarfi olingan daromaddan 10 % hisobida.

$h_x = 0,1$ xo`jalik harajatini daromaddagi salmog`i;	0,1
$h_b = 0,035$ boshqa harajatni daromaddagi salmog`i;	0,035
$h_r = 0,12$ foydani daromaddan ulushi;	0,12

9. Xizmatning to`liqsiz tannarhi.

$\sum C_{mm} = C_{pr} + C_c + C_{om} + C_{el} + C_{gaz} + C_m =$	51186709,4 2	so`m
$C_{pr} =$	6997058,824	so`m
$C_c =$	2798823,529	so`m
$C_{om} =$	2701520	so`m
$C_{el} =$	26239307,06	so`m
$C_{gaz} =$	1200000	so`m
$C_m =$	11250000	so`m

10. Yillik daromad hisobi.

$$\sum D_i = \sum C_{mm} / \eta_{tg} = 68706992,5 \quad \text{so`m}$$
$$\eta_{tg} = 1 - (\eta_x + \eta_b + \eta_r) = 0,75$$

Bunda;

η_{tg} -to`liqsiz tannarhning daromaddagi ulushi.

11. Umumiy tannarh.

$$C_m = \sum C_{mm} + C_b + C_x = 60462153,4$$
$$\sum C_{mm} = 51186709,42$$

C_b - boshqa harajatlari yig`indisi;

$$C_b = \sum D_i * \eta_b = 2404744,738 \quad \text{so`m/yil}$$

C_x - xo`jalik harajatlari yig`indisi;

$$C_x = \sum D_i * \eta_x = 6870699,25 \quad \text{so`m/yil}$$

12. Bitta yengil avtomobilga ko`rsatiladigan xizmatdan olinayotgan daromad.

$$D_y = \sum D_i / N_f = 91609,32 \quad \text{so`m}$$

13. Yalpi foyda quyidagicha aniqlanadi.

$$P = \sum D_i - \sum C_m = 8244839,10 \quad \text{so`m}$$

14. Sof foyda quyidagicha aniqlanadi.

$$P_{sf} = P * \eta_{sxx} = 6595871,28 \text{ so`m}$$
$$P = 8244839,10$$

η_{sxx} - soliqlarni hisobga oluvchi koeffitsient; $\eta_{sxx} = 0,8$

15. Rentabellik quyidagicha aniqlanadi.

$$R = (P / \sum C_m) * 100 = 13,64 \%$$

5.2. Asosiy ishlab chiqarish fondini hisoblash.

1. Aylanma vositalar hajmini aniqlanadi.

$$F_{ay} = C_j * 0,14 = 3500000 \text{ so`m}$$

2. Jami ishlab chiqarish fondi hajmi.

$$F_{ich} = F_{of} + F_{oy} = 57530400 \text{ so`m}$$
$$F_{of} = 54030400 \text{ so`m}$$
$$F_{ay} = 3500000 \text{ so`m}$$

3. Mulk solig`ini aniqlash quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$P_{m/s} = F_{i/ch} * 0,03 = 1725912 \text{ so`m}$$

5.3. Ishlab chiqarish fondidan foydalanish ko`rsatkichlari.

1. Asosiy ishlab chiqarish fondining mablag` qaytarish koeffitsiyenti.

$$K_f = \sum D_{u/d} / F_{ich} = 1,19$$

2. Avtomobil savdosi bilan shug`ullanmaganligi uchun.

$$\sum D_{u/d} = \sum D_y = 68706992,50$$
$$F_{ich} = 57530400$$

3. Kapital va sarflarni yillik qaytarish imkoniyati yoki jami olinadigan samara.

$$E = C_{am} + P_{sf} + P^{b-1}_{sf} + P^{b-2}_{sf} = 36736698,34$$
$$C_{om} = 2701520$$
$$P_{sf} = 6595871,28$$
$$P^{b-1}_{sf} = 26239307,06$$
$$P^{b-2}_{sf} = 1200000$$

4. Kapital sarflarni qaytarish muddati.

$$T_{ok} = K_r / E_{yil} = 1,22 \text{ yil}$$
$$K_r = 45000000$$
$$E_{yil} = 36736698,34 \text{ so`m}$$

5. Ishlab chiqarishdagi bir ishchining mehnat unumdorligi.

$$P_{ich} = \sum D_{u/d} / \sum R_T = 9815284,64 \text{ so`m/ishchi.}$$
$$\sum D_{u/d} = 68706992,50$$
$$\sum R_T = 7$$

Avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatuvchi korxonaning asosiy texnik iqtisodiy
ko`rsatkichlari.

3-jadval

T/r	Ko`rsatkichlarning nomlanishi	Belgilanishi	O`lchov birliklari	Ko`rsatkichlarning qiymatlari
1	Xizmat ko`rsatiladigan avtomobillar soni	N_f	dona	750
2	Asosiy ishlab chiqarish fondi narhi	F_{of}	so`m	54030400
3	Aylanma vositalar me`yori	F_{oy}	so`m	3500000
4	Zarur bo`lgan kapital mablag`	K	so`m	45000000
5	Ishlab chiqaruvchi ishchilar soni	R_{ich}	ishchi	5
6	Mehnat unumdorligi	P_{ich}	so`m	9815284,64
		P_{obm}	so`m	8244839,10
7	Umumiy tannarh	$\sum C_m$	so`m	60462153,4
8	Yalpi foyda	P_{sf}	so`m	6595871,28
9	Rentabellik	R	%	13,64
10	Yillik iqtisodiy samara	E	so`m	36736698,34
11	Kapital mablag`ni oqlash vaqti	T_{ok}	yil	1,22
12	Umumiy daromad	$\sum D_{u/d}$	so`m	68706992,50

6. XULOSA VA TAKLIFLAR

Bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mahsulot ishlab chiqaruvchi barcha sohalarni rivojlantirish texnik-texnologik yo'nalishdagi qator zaruriy masalalarni kun tartibiga qo'ymoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida transport tizimining faoliyat ko'rsatish samaradorligini transport xizmatiga talab va takliflari o'zgarishlarining balanslanganiga (tengligiga), boshqaruvning eng o'rinli bo'lganlarini tanlashga, zarur bo'lganda shu munosabatlarni operativ o'zgartirish imkoniyatlariga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Respublikamizning umumiy transport tizimida shahar yo'lovchilar transporta alohida o'rinni egallaydi. Shahar yo'lovchilar transporti ishini tashkil etish muhim muammolardan biri bo'lib, uning xal qilinishi zamonaviy shaharlarning hayot faoliyatini ta'minlaydi. Shuning uchun shahar ichida yo'lovchilarni tashish masalalari ko'pchilik aholining faoliyatiga taalluqlidir.

Yo'lovchilarni avtomobillar bilan tashishda qo'llaniladigan transport vositasiga qarab avtobus, taksomotor va xizmat vazifalari bilan yuradigan yengil avtomobillar (va shaxsiy foydalanish) turlariga va marshrutlarning o'tish xududi bo'yicha tegishli turlarga bo'linadi.

Avtobusda tashishlar tashkil etilishiga qarab, ikki asosiy: marshrutli va marshrutsiz guruhlarga bo'linadi. Birinchisiga yo'lovchilarni, oldindan qat'iy belgilangan yo'llar (marshrut), va shartnomada ko'rsatilgan vaqt va to'xtash joylari bo'yicha tashishlar kiradi. Bunda harakatlar xaftaning kunlari va sutkaning soatlari bo'yicha tuzilgan grafiklar kat'iylashtiriladi. Ikkinchisi, odatda, shartnomalar va yakka buyurtmalar asosida bajarilad. Unga quyidagilar kiradi:

➤ ishchi va xizmatchilarni yashash joylaridan ishga (qurilish maydonlari, sanoat korxonalari, neft konlari va h.k.) va ishdan yashash joylariga tashish; bunday tashishlar umum foydalanishdagi transport marshrutlari bo'lmagan hududlarda,

aholisi kam hududlardagi sust ishlaydigan marshrutlar mavjud bo`lganda qo`llanadi;

- turist va ekskursiya guruhlarini ular tanlagan marshrutkalar bo`ylab tashish;
- odamlarni ba'zan tashkil etiladigan madaniy-maishiy maksadlarda tashish.

Marshrutlarning o`tish hududlariga qarab, yo`lovchilarni tashish shahar, shahar atrofi, shaharlararo (viloyatlararo), xalqaro, respublikalararo (Qorakalpogiston Respublikasi va O`z.R.ning viloyatlari) turlarga bo`linadi.

Shahardagi tashishlarga shahar ichidagi tashishlar kiradi; shahar atrofidagi tashishlar-shahardan 50 km gacha nari xududlarda tashish kiradi; shaharlararo tashishlar shahardan yoki aholi punktidan 50 km dan ortiq; masofalarda tashish, shuningdek, tashish masofasidan qat`iy nazar, agar ikkita va undan ko`p viloyatlar orasida bo`lsa; xalqaro tashish-O`z.R. hududidan tashqarilarga va u yerlardan O`z.R. hududiga tashishlar kiradi.

Shuningdek tuman ichidagi (qishlok) va viloyat ichidagi tashishlar ham bor, ular o`z hududlaridan tashqariga chiqmaydi.

Yengil taksomotor tashishlar aholi tanlagan marshrut bo`yicha amalga oshiriladi. Taksi avtomobillarning asosiy afzalligi yo`lovchilarni manzilga tez yetkazilib, vaqtni tejashdan iborat. Yo`lovchilarning, taksi avtomobilda sarf qiladigan vaqti, shaharning ommaviy yo`lovchi transportiga qaraganda ikki marta kam bo`ladi. Bundan tashqari, marshrutni tanlash imkoni katta, qulay bagajni ham tashish mumkin. Ba'zan taksi avtomobilidan, kam yo`lovchi tashiladigan, lekin qatnov chastotasi yuqori yo`nalishlarda marshrut transporti sifatida ham foydalaniladi.

Maxsus avtotransport korxonalari bo`ladiki, ularning yengil avtomobillari vazirliklar, muassasalar, tashkilotlar va korxonalarga, xizmat vazifalarini o`taydigan xodimlarni tashishga yuboriladi.

Shaharlarda yulovchilarni tashish. Bunday tashishlar shahar yoki shahar turidagi posyolkalarda bajariladi va ulushi katta (71,5%). Shahar ichida tashishlar hajmi shahar aholisi sonining o`lish sur'ati bilan bog`liq. Zamonaviy shaharlarning hududlari kengayib boradi, aholining harakatlanishi ko`payadi (bir odam yil davomida qilgan qatnovlar soni), natijada o`rtacha qatnov masofasi va yo`lovchilar aylanmasi ortadi.

Shaharda yo`lovchilar tashuvlari, yo`lovchilarning hafta kunlari va sutkaning soatlari bo`yicha harakatlanishi o`zgarib turishi bilan tavsiflanadi. Ertalabki vaqtlarda tashish “cho`qqi”ga chiqib, kunduzgi soatlarda pasayadi. Avtobuslar odatda, o`zgarmas marshrutlar bo`yicha, jadvallar asosida, 2-3 smena ishlaydi.

Taksomotor tashishlar shahar va unga yondosh tumanlarning barcha hududida bajariladi. Yirik shaharlarning taksilari sutka davomida uzluksiz ishlaydi.

Shaharlarda yo`lovchilar tashishning asosiy muammosi “chuqqi” soatlarda tashish jarayonini takomillashtirish va yo`lovchilarga xizmat sifatini yaxshilashdan iborat. Katta shaharlardagi yo`lovchilar transport turlari (metro, tramvay, trolleybus, avtobus) orasida avtobus turi keng tarqalgan va ba'zi holatlarda, umum foydalaniladigan yagona transport turi bo`ladi.

Shahar yo`lovchilar transportining u yoki bu turini qo`llash avvalo, uning tashish qobiliyati, dastlabki kapital mablag`i va tashish tannarhi bilan bog`liq. Katta shaharlarda hamma turidan foydalanish kerak. Bunda, turlarning texnik-ekspluatatsion sifatlariga muvofiq holatda, ular ishi o`zaro muvofiqlashtirilishi, yo`lovchilar oqimlari taqsimlanilishi kerak.

7. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi PF-4947-sonli president farmoni. –Toshkent: 2017. 7-fevral.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O`zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan murojaatnoma. -Toshkent: 2017. 22-dekabr.
3. “O`zbekiston Respublikasi avtomobil transporti harakatdagi tarkibining texnik xizmati va ta`miri haqida”gi nizom, Toshkent, “Uzavtotrans” korporasiyasi 1999 yil. 194 bet.
4. Sh.M.Mirziyoyevning “Aholiga transport xizmati ko`rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo`lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori. –Toshkent: 2017. 10-yanvar.
5. “O`zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi va respublika avtomobil transporti”ning 2017-yil ish yakunlari to`g`risidagi ma`lumotnoma.
6. Xo`jaev B.A. Avtomobillarda yuk va passajirlarni tashish asoslari. Darslik. –Toshkent: “O`zbekiston”, 2002. -240 bet.
7. Karimov E. Avtomobillarda yuk tashish va uni tashkil qilish. Darslik. –Toshkent: “Sharq”, 2002. -240 bet.
8. Xo`jaev B.A. Avtomobil transporti iqtisodiyoti. Darslik. –Toshkent: “O`qituvchi”, 1992. -192 bet.
9. Avtomobillarda yo`lovchilarni va yuklarni tashishni tashkil qilish va normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish (metodik qo`llanma). -T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2012. - 500 bet.
10. Muhitdinov A., Sattivaldiev B. va Xakimov Sh. “Transport vositalarining tuzilishi. Design of vehicles”. O`quv qo`llanma. -Toshkent: “Ta`lim nashriyoti” nashriyoti, 2014. -158 bet.

11. Muhitdinov A, Sattivaldiev B, Fayzullaev E, Hakimov Sh. Avtomobillar konstruksiya asoslari. O`quv qo`llanma. -Toshkent: "Istiqlol nuri" nashriyoti. 2015. -331 bet.
12. Qoriyeva Yo. K. Globallashuv jarayonida xalqaro transport logistik tizimi faoliyatining samaradorligi. –Toshkent: ToshDAU, 2003. -148 bet.
13. Кузнецов Э.С., Болдин А.П. ва бошқалар. Автомобиллар техник эксплуатацияси. Дарслик. –Тошкент: "Voris-nashiriyot", 2006. -630 бет.
14. Magdiev Sh.P., Rasulov H.A. Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko`rsatish, ta`mirlash. O`quv qo`llanma. –Тошкент: "Ilm ziyo" nashriyoti. 2011.-207 bet.
15. Азизов Қ.Х. Ҳаракат хавфсизлигини ташкил этиш асослари. Дарслик. –Тошкент: "Ёзувчи" нашриёти. 2002. -182 бет.
16. Раҳимов Х., Аъзимов А., Турсунов Т. Меҳнатни муҳофаза қилиш. Ўқув қўлланма. –Тошкент: "Ўзбекистон". 2003. -210 бет.
17. Қосимов Ғ.М.. Транспорт корхоналарида менежмент. Дарслик. – Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти. 2001. -448 бет.
18. www.google.ru
19. www.ziyonet.uz
20. www.repairpal.com
21. www.xs.uz
22. www.uzavtosanoat.uz

8. ILOVA

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ ҚАРОРИ

ШАҲАР АТРОФИ, ШАҲАРЛАРАРО ВА ХАЛҚАРО ЙЎЛОВЧИЛАР ТАШИШ АВТОМОБИЛЬ ТРАНСПОРТИДА ОЧИҚ ТЕНДЕРЛАР ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ МАСАЛАЛАРИ ТЎҒРИСИДА

Аҳолига хизмат кўрсатиш маданияти ва сифатини ошириш, йўловчилар ташувчи автомобиль транспорти билан хизматлар кўрсатиш соҳасида рақобат муҳитини яратиш, йўловчилар ташувчи автомобиль транспорти фаолиятини тартибга солиш ҳамда Олмалиқ, Бухоро, Наманган, Нукус ва Самарқанд шаҳарларида шаҳарда йўловчилар ташиш йўналишларини жойлаштириш учун очик тендерлар ўтказишнинг ижобий тажрибасини ҳисобга олиб Вазирлар Маҳкамаси қарор қилади:

Олдинги тахрирга қаранг.

1. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ҳокимликлари, Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлиги шаҳар атрофи, шаҳарлараро (вилоят ичида, вилоятлараро) ва халқаро йўловчилар ташиш йўналишларини жойлаштириш учун республикада очик тендерлар ўтказиш тўғрисидаги таклифи қабул қилинсин.

(1-банд Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 5 июндаги 245-сонли қарори тахририда — ЎР ҚХТ, 2001 й., 11-сон, 65-модда)

2. Белгилансинки:

шаҳар атрофи ва шаҳарлараро-вилоят ички йўналишларида ва Қорақалпоғистон Республикаси доирасидаги йўналишларда — шаҳар атрофи ва шаҳарлараро-вилоят ички йўналишларида йўловчилар ташишни ташкил этиш бўйича Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари комиссиялари;

шаҳарлараро-вилоят ички йўналишларида, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ўртасидаги йўналишларда, шунингдек халқаро йўналишларда — Шаҳарлараро-вилоятлараро ва халқаро йўналишларни жойлаштириш учун очик тендерлар ўтказишни ташкил этиш масалалари бўйича идоралараро комиссия очик тендерлар ташкилотчилари бўладилар.

3. Қуйидагилар:

Шаҳар атрофи, шаҳарлараро (вилоят ичида, вилоятлараро) ва халқаро йўловчилар ташиш йўналишларини жойлаштириш учун очик тендерлар ташкил этиш ва ўтказишга оид чора-тадбирлар дастури 1-илова*га мувофиқ;

** 1-илова берилмайди.*

Шаҳар атрофи, шаҳарлараро (вилоят ичида, вилоятлараро) ва халқаро йўловчилар ташиш йўналишларини жойлаштириш учун очик тендерлар ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисидаги низом 2-иловага мувофиқ;

Шаҳар атрофи ва шаҳарлараро-вилоят ички йўналишларида йўловчилар ташишни ташкил этиш комиссияси тўғрисидаги намунавий низом 3-иловага мувофиқ;

Шаҳарлараро-вилоятлараро ва халқаро йўналишларни жойлаштириш учун очик тендерлар ўтказишни ташкил этиш масалалари бўйича идоралараро комиссия таркиби 4-илова*га мувофиқ;

** 4-илова берилмайди.*

Шаҳарлараро-вилоятлараро ва халқаро йўналишларни жойлаштириш учун очик тендерлар ўтказишни ташкил этиш масалалари бўйича идоралараро комиссия тўғрисидаги низом 5-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

Олдинги тахрирга қаранг.

4. Белгилансинки, Шаҳарлараро-вилоятлараро ва халқаро йўналишларни жойлаштириш учун очик тендерлар ўтказишни ташкил этиш масалалари бўйича идоралараро комиссия қарори асосида Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлиги тендер ғолиби билан шаҳарлараро-вилоятлараро ва халқаро йўналишларда хизмат кўрсатиш юзасидан контракт тузади.

(4-банд Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 5 июндаги 245-сонли қарори таҳририда — ЎР ҚХТ, 2001 й., 11-сон, 65-модда)

5. Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлиги Шаҳар атрофи, шаҳарлараро (вилоят ичида, вилоятлараро) ва халқаро йўловчилар ташиш йўналишларини жойлаштириш учун очиқ тендерлар ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисидаги низомни амалга ошириш учун зарур бўлган ҳужжатларни бир ой муддатда ишлаб чиқсин ва тасдиқласин ҳамда Идоралараро комиссияни ва Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ҳокимликларининг тегишли комиссияларини улар билан таъминласин.

Олдинги таҳрирга қаранг.

6. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимлари Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлиги билан биргаликда:

ўн кун муддатда шаҳар атрофи ва шаҳарлараро-вилоят ички йўналишларида йўловчилар ташишни ташкил этиш комиссияларини тузсинлар ва улар тўғрисидаги низомларни тасдиқласинлар;

йўловчилар ташишни ташкил этиш комиссиялари раҳбарларининг ҳисоботларини йилнинг ҳар чорагида эшитиб борсинлар ва уларга ҳар томонлама кўмаклашсинлар.

(6-банднинг биринчи хатбоииси Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 5 июндаги 245-сонли қарори таҳририда — ЎР ҚХТ, 2001 й., 11-сон, 65-модда)

7. Оммавий ахборот воситалари шаҳар атрофи, шаҳарлараро (вилоят ички, вилоятлараро) ва халқаро йўловчилар ташиш йўналишларини жойлаштириш учун очиқ тендерлар ўтказишнинг боришини мунтазам ёритсинлар.

8. Мазкур қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари Л.А. Ахметов зиммасига юклансин.

Вазирлар Маҳкамасининг Раиси И. КАРИМОВ

Тошкент ш.,

1999 йил 29 июль,

368-сон

Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил

29 июлдаги 368-сон қарорига

2-ИЛОВА

Шаҳар атрофида, шаҳарлараро (вилоятлар ичида, вилоятлараро) ва халқаро йўловчилар ташиш йўналишларини жойлаштириш учун очиқ тендерлар ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисида

НИЗОМ

I. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

1. Ушбу Низом шаҳар атрофида, шаҳарлараро ва шаҳарлараро-вилоятлар ичида йўналишларни, Қорақалпоғистон Республикаси доирасида йўналишларни, шаҳарлараро-вилоятлараро йўналишларни, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ўртасидаги йўналишларни, шунингдек халқаро йўловчилар ташиш йўналишларини жойлаштириш учун очиқ тендерлар ташкил этиш ва ўтказиш тартибини белгилаб беради.

Олдинги таҳрирга қаранг.

Олдинги таҳрирга қаранг.

2. Очиқ тендерда белгиланган тартибда Ўзбекистон Республикаси ҳудудида рўйхатдан ўтказилган, давлат солиқ хизмати органларида ҳисобда турадиган автомобиль транспортида тегишли равишда шаҳар атрофида шаҳарлараро, халқаро йўловчилар ташишларни амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга ҳамда тендер таклифларида тавсия этилаётган ҳар бир автотранспорт воситаси учун лицензия карточкаларига эга бўлган ҳар қандай юридик шахс қатнашиши мумкин. Тендер қатнашчиси айнан битта автотранспорт воситаларини ҳар хил йўналишларга тавсия этишга ҳақли эмас.

(2-банднинг биринчи хатбоииси Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 25 апрелдаги 238-сонли қарори таҳририда — ЎР ҚХТ, 2017 й., 17-сон, 300-модда)

Тугатиш ёки банкротлик босқичида турган ёхуд мулкига арест солинган талабгорларнинг тендерда қатнашишига йўл қўйилмайди.

(2-банд Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 16 февралдаги 34-сонли қарори таҳририда — ЎР ҚХТ, 2011 й., 7-8-сон, 58-модда)

3. Қуйидагилар очик тендерларнинг ташкилотчилари ҳисобланадилар:

шаҳар атрофидаги ва шаҳарлараро-вилоятлар ичидаги йўналишларда, Қорақалпоғистон Республикаси доирасидаги йўналишларда — Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ҳокимликларининг шаҳар атрофидаги ва шаҳарлараро-вилоятлар ичидаги йўналишларда йўловчилар ташишларни ташкил этиш бўйича комиссиялар (бундан кейин матнда — «Комиссия» деб аталади);

шаҳарлараро-вилоятлараро йўналишларда, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ўртасидаги йўналишларда, халқаро йўналишларда — шаҳарлараро-вилоятлараро ва халқаро йўналишларни жойлаштириш учун очик тендерлар ўтказишни ташкил этиш масалалари бўйича Идоралараро комиссия (бундан кейин матнда — «Комиссия» деб аталади).

Олдинги таҳрирга қаранг.

4. Тендерга алоҳида йўналишлар ҳам, йўналишлар пакетлари ҳам қўйилиши мумкин шунингдек узунлиги камида 400 км бўлган ушбу йўналишларнинг алоҳида жадваллари.

(4-банднинг биринчи хатбоиши Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 16 февралдаги 34-сонли қарори таҳририда — ЎР ҚХТ, 2011 й., 7-8-сон, 58-модда)

Йўналишлар пакетларини шакллантиришда йўналишларнинг аҳамияти ва рентабеллиги ҳисобга олинади. Пакетга рентабелли йўналишлар билан бир қаторда аҳолига хизмат кўрсатиш учун зарур бўлган рентабелсиз йўналишлар ҳам киритилиши мумкин.

Олдинги таҳрирга қаранг.

5. Тендер камида икки қатнашчи мавжуд бўлган тақдирда ўтказилади.

Ташувчига тендер ўтказилмасдан йўналишда ишлаш ҳуқуқининг биркитилишига йўл қўйилмайди, қуйидаги ҳолатлар бундан мустасно:

янги йўналиш очилгандан кейин уч-тўрт ой мобайнида янги йўналишда автотранспорт воситаларининг мунтазам синов ишлари бажарилиши;

кўча-йўл тармоғида олдиндан қўйилмаган вазиятларда, айрим участкалар, транспорт узеллари ва майдонлари ёпилганда вақтинчалик йўналишлар жорий этилиши;

йўналишларнинг ташкилотлар буюртмалари бўйича соатбай ҳақ тўлаш асосида бажарилиши;

дам олиш зоналари, спорт-соғломлаштириш комплекслари, ярмаркаларнинг фаолият кўрсатиш даврида мавсумий йўналишларнинг ташкил этилиши;

махсус йўналишлар (ташкилотлар ходимларини ишга олиб бориш ва ишдан олиб кетиш кабилар учун) ташкил этиш.

Олдинги таҳрирга қаранг.

бўлиб ўтмаган тендер муносабати билан йўналиш ташувчининг хизматисиз қолади. Комиссия йўналишга (йўналишлар пакетига ёки жадвалига) такрорий тендер натижаларигача бўлган даврга контрактнинг амалда бўлишини узайтиради ёхуд исталган ташувчига ушбу даврда мазкур йўналишга хизмат кўрсатишни юклайди.

(5-банд Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 25 апрелдаги 238-сонли қарорига асосан саккизинчи хатбоиши билан тўлдирилган — ЎР ҚХТ, 2017 й., 17-сон, 300-модда)

Тендерда қатнашиш учун буюртманомалар мавжуд бўлмаганда ёхуд унда атиги бир нафар ташувчи қатнашганда Комиссия ушбу Низомда назарда тутилган тартибда такрорий тендер ташкил этиши керак, бунда йўналишга (йўналишлар пакетига ёки жадвалга) йўналишга қўйиладиган талабларнинг қайта кўриб чиқилишига йўл қўйилади.

Агар такрорий тендерни ўтказишда йўналишга (йўналишлар пакетига) яна атиги бир нафар ташувчи талабгор бўлса, Комиссия ушбу ташувчига йўналишда (йўналишлар пакетига ёки жадвалида) ишлаш ҳуқуқини мазкур ташувчининг тендер таклифлари қўйилаётган талабларга мувофиқ бўлган тақдирда бириктириб қўйиш ҳуқуқига эгадир.

(5-банд Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 16 февралдаги 34-сонли қарори таҳририда — ЎР ҚХТ, 2011 й., 7-8-сон, 58-модда)

II. ТЕНДЕРНИ ЎТКАЗИШНИНГ МАҚСАДИ ВА ТАМОЙИЛЛАРИ

6. Қуйидагилар тендерни ўтказишнинг асосий тамойиллари ҳисобланади:

йўналишларни мулкчиликнинг турли шаклларидаги ташувчилар ўртасида ҳаққоний, ҳолисона тақсимлаш;

ташувчини танлаш масалаларининг субъектив ҳал этилиши имкониятига мутлақо йўл қўймаслик учун ғолибни танлаш тендер қатнашчилари, матбуот вакиллари иштирокида ўтказилиши керак;

ташувчилар тендер ҳужжатларида қайд этилган ягона талаблар ва йўловчилар ташиш қоидалари асосида рақобатлашиши керак;

йўловчилар ташиш ҳуқуқини ташувларнинг энг фойдали шартларини (автобусларнинг қулай русумлари, қатнов оралиғи катта бўлган йўналишда хизматлар кўрсатиш, йўналишларда ишлаш чоғида қатнов хавфсизлигини таъминлаш чора-тадбирларининг самарали тизими ва шу кабиларни) таклиф этган ташувчи олади.

III. ОЧИҚ ТЕНДЕРЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Олдинги таҳрирге қаранг.

7. Комиссия тендерга қўйиладиган йўналишлар (йўналишлар пакетлари ёки жадвали) рўйхатини тайёрлайди, тендер ҳужжатлари пакетини шакллантиради, тендер предметини, уни ўтказишнинг асосий шартларини, тартибини, вақтини, жойини, шу жумладан тендер қатнашчилари томонидан ҳужжатларни расмийлаштириш тартибини тендер ўтказилишидан камида 30 кун олдин оммавий ахборот воситалари орқали эълон қилади.

(7-банд Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 16 февралдаги 34-сонли қарори таҳририда — ЎР ҚХТ, 2011 й., 7-8-сон, 58-модда)

8. Очiq тендерда қатнашишни хоҳловчилар тендер ҳужжатлари пакетини олиш юзасидан Комиссияга ёзма буюртманома беришлари керак. Буюртманомалар бериш ва тендер ҳужжатларини олиш учун белгиланган муддат тендер ўтказиладиган санадан 5 кун олдин тугайди. Барча буюртманомалар Комиссиянинг тартиб рақами қўйилган ва ип ўтказиб боғланган махсус дафтарида рўйхатдан ўтказилади.

9. Комиссия ташувларни амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга бўлган қатнашчилардан тушган барча буюртманомаларни истисносиз қабул қилишга мажбур.

Очiq тендерда қатнашиш учун белгиланган муддатдан кечикиб тушган буюртманомалар кўриб чиқиш учун қабул қилинмайди.

Олдинги таҳрирге қаранг.

10. Қатнашчи тендер ҳужжатлари баҳосини эълонларни чоп этиш харажатларини ҳисобга олган ҳолда уларни тайёрлашнинг ҳақиқий таннарни бўйича тўлаши керак. Тушган маблағлар вилоят ҳокимлигининг (Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлигининг) махсус счётига ўтказилади ва улардан фақат тендерлар ўтказишни ташкил этиш учун фойдаланилади. Фақат комиссия раиси Комиссия аъзолари билан келишган ҳолда ушбу маблағларни тасарруф этиш ҳуқуқига эга.

(10-банд Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 16 февралдаги 34-сонли қарори таҳририда — ЎР ҚХТ, 2011 й., 7-8-сон, 58-модда)

11. Тендер ҳужжатлари пакети қуйидагилардан иборат бўлади:

шаҳар атрофида, шаҳарлараро (вилоят ичида, вилоятлараро) ва халқаро йўловчилар ташиш йўналишларини жойлаштириш юзасидан очiq тендерлар ташкил этиш бўйича низом;

қатнашчи тўғрисидаги маълумотлар шакли;

тендер қатнашчиси учун йўриқнома;

тендерга қўйилган йўналишларда йўловчилар ташишни ташкил этишга қўйиладиган талаблар;

қатнашчиларнинг тендер бўйича таклифлари шакли;

Олдинги таҳрирге қаранг.

йўналишда (йўналишлар пакетида, йўналишнинг алоҳида жадвалида) йўловчилар ташиш транспортида хизматлар кўрсатиш бўйича контрактнинг намунавий шакли;
тендер таклифлари ва қатнашчи тўғрисидаги маълумотларни Комиссияга бериш учун конверт.

Конвертга тендерга қўйилаётган йўналишнинг (ёки йўналишлар пакетининг, йўналишнинг алоҳида жадвалининг) номи ёзилади.

Агар тендерга биттадан ортиқ йўналиш (йўналишлар пакети, йўналишнинг алоҳида жадвали қўйилган бўлса), у ҳолда ҳар қайси йўналиш (ёки йўналишлар пакетининг, йўналишнинг алоҳида жадвали) учун алоҳида конверт ажратилган бўлиши керак. Тендернинг у ёки бу қатнашчисини ажратиб олиш мумкин бўлмаслиги учун конвертларда ҳеч қандай чизикчалар ёки фарқловчи белгилар бўлмаслиги керак. Тендерда қатнашишга талабгорга тендер ҳужжатлари пакетини бериш махсус дафтарда рўйхатдан ўтказилади.

(11-банднинг еттинчи—ўн биринчи хатбошилари Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 16 февралдаги 34-сонли [қарорига](#) асосан еттинчи — ўнинчи хатбошиларга алмаштирилган — ЎР ҚХТ, 2011 й., 7-8-сон, 58-модда)

12. Тендер бўйича таклифларни қабул қилиш тендер ўтказилишидан бир кун олдин тугайди. Тендер бўйича таклифларни қабул қилишнинг тугаш санаси ва вақти Комиссия томонидан ўтказиладиган тендер тўғрисидаги эълонда кўрсатилган бўлиши керак.

13. Тендер бўйича таклифлар топширилгандан кейин қатнашчилар уларга бирон-бир тузатишлар киритиш ҳуқуқига эга эмас.

14. Қатнашчилардан тендер бўйича тушган таклифларни Комиссия баҳолайди.

IV. ТЕНДЕР БЎЙИЧА ТАКЛИФЛАР МАЗМУНИ

15. Тендер бўйича таклифлар қуйидаги кўрсаткичлар ва ахборотлардан иборат бўлиши керак:

15.1. Шаҳар атрофидаги ва вилоят ичидаги, шаҳарлараро йўналишлар бўйича:

а) йўналишдаги 1 йўловчи — км учун тарифнинг қатнашчи томонидан таклиф этилаётган даражаси;

б) транспорт воситасининг русуми (класси), ишлаб чиқарилган йили;

в) автотранспорт воситасининг ташув учун таклиф қилинаётган умумий йўловчи ўринлари сони;

г) автобус иш тартибининг таклиф этилаётган варианты;

д) йўналишдаги қатновларнинг таклиф этилаётган сони;

е) йўналишларда ишлаётганда ҳаракатланиш хавфсизлигини ва ёнғин хавфсизлигини таъминлаш бўйича тадбирлар режаси.

15.2. Вилоятлараро, шаҳарлараро ва халқаро йўналишлар бўйича ҳам [15.1-бандда](#) қайд этилган мезонлар қўлланади, [«г»](#) ва [«д»](#) кичик бандларидаги кўрсаткичлардан ташқари.

Қатнашчи тендер бўйича таклифларнинг барча бандларига доир тўлиқ ва муфассал ахборот тақдим этишга мажбур.

V. ТЕНДЕР БЎЙИЧА ТАКЛИФЛАРНИ БАҲОЛАШ ВА ҲОЛИБНИ АНИҚЛАШ

Олдинги таҳрирга қаранг.

16. Тендер таклифлари Комиссиянинг ҳар бир аъзоси томонидан қуйидаги тартибда кўриб чиқилади ва баҳоланади:

а) қатнашчи томонидан йўналишдаги 1 нафар йўловчи км. учун тавсия этилаётган тариф даражаси учун — Комиссия талаб этадиган ташиш тарифи ўрнига даражани пасайтиришнинг ҳар бир пункти учун ортиб борадиган коэффициентни қўллаган ҳолда беш балли тизим бўйича;

б) транспорт воситасининг русуми, ишлаб чиқарилган йили учун — табақалаштирилган баллар бўйича. Бунда транспорт воситаси русуми учун олинган балларга 1.15 микдорда оширувчи коэффициент қўлланади, агар транспорт воситаси тендер қатнашчисининг мулки бўлса;

в) ташиш учун тавсия этилаётган автотранспорт воситаларининг умумий сифими учун — табақалаштирилган баллар бўйича.

Комиссия йўналишда ишлаш учун талаб қилинадиган автомобиль русумини ва унинг бўйича табақалаштирилган балларни мустақил равишда белгилайди;

г) автобуслар иш режимининг тавсия этилаётган варианты учун — беш балли тизим бўйича;

д) йўналишдаги рейсларнинг тавсия этилаётган сони учун — беш балли тизим бўйича;

е) йўналишларда ишлашда ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш бўйича тадбирлар режаси — беш балли тизим бўйича. Бунда ташувчи беш баллни қуйидаги мажбурий шартларни бажарган тақдирда олади:

транспорт воситаларининг ҳар куни рейсдан олдинги техник назоратини таъминлаш;

хайдовчиларнинг ҳар кунги тиббий кўрикдан ўтишини таъминлаш;

хайдовчиларни Йўл ҳаракати қоидаларининг 30 соатли дастури бўйича ўқитиш.

Комиссия, йўналишга аниқ талабларни ҳисобга олган ҳолда, иштирокчиларнинг тендер таклифларини баҳолашга қўшимча талабларни тавсия этишга ҳақлидир.

Тендер таклифларини баҳолашни ўтказиш учун зарур бўлган йўриқнома-методик хужжатлар ва уларнинг шакллари Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлиги томонидан тасдиқланади.

(16-банд Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 25 апрелдаги 238-сонли қарори таҳририда — ЎР ҚХТ, 2017 й., 17-сон, 300-модда)

17. Комиссия тендер бўйича таклифларни баҳолашнинг якуний балини ҳар бир қатнашчи бўйича аниқлайди.

18. Агар танлаб олиш натижаларига кўра бир нечта талабгор тенг баллар олган бўлса, у ҳолда ғолиб Комиссия аъзоларининг ёпиқ овоз бериши йўли билан аниқланади.

19. Комиссиянинг тендер ғолибини аниқлаш бўйича мажлиси натижалари протокол билан расмийлаштирилади, уни Комиссия аъзолари, раиси ва мазкур йўналиш ёки йўналишлар пакети бўйича тендер ғолиби имзолайдилар.

Олдинги таҳрирга қаранг.

Тендер ғолибига тендер бўйича ютиб чиқилган мазкур йўналишда (йўналишлар пакетида, йўналишнинг алоҳида жадвалида) ишлаш ҳуқуқини тасдиқловчи гувоҳнома берилади. Гувоҳномани Комиссия раиси имзолайди ҳамда у Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоят ҳокимлиги, Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлиги муҳри билан тасдиқланади.

(19-банднинг иккинчи хатбоииси Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 16 февралдаги 34-сонли қарори таҳририда — ЎР ҚХТ, 2011 й., 7-8-сон, 58-модда)

20. Контрактни имзолаш муддати қатнашчи тендер ғолиби деб эълон қилингандан кейин 20 кундан ошмаслиги керак. Комиссия контракт имзолангунгача олдиндан (тендер ўтказилгандан кейин 15 кун мобайнида) ғолибнинг тендер бўйича таклифларининг тўғрилигини текширишга ҳақлидир.

Олдинги таҳрирга қаранг.

Тендер ғолибининг тендер бўйича унинг тендер таклифларининг ҳақиқийлиги Комиссия томонидан аниқланиши керак бўлган таклифларининг нотўғри эканлиги аниқланган тақдирда энг кўп баллар миқдори бўйича кейинги талабгор ғолиб деб эътироф этилади.

(20-банднинг иккинчи хатбоииси Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 16 февралдаги 34-сонли қарори таҳририда — ЎР ҚХТ, 2011 й., 7-8-сон, 58-модда)

Олдинги таҳрирга қаранг.

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоят ҳокимлиги Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлиги томонидан тендер ғолиби билан йўналишларда йўловчи ташиш транспорти билан хизматлар кўрсатиш юзасидан камида 1 йил муддатга контракт тузилади.

(20-банднинг учинчи хатбоииси Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 5 июндаги 245-сонли қарори таҳририда — ЎР ҚХТ, 2001 й., 11-сон, 65-модда)

Ташувчи томонидан контракт бўйича ишларнинг барча шартларига риоя қилинган тақдирда контрактни имзолаган орган Комиссия қарори асосида контрактнинг амал қилиш муддатини узайтиришга ҳақлидир.

21. Тендернинг исталган қатнашчиси Комиссиядан тендер бўйича таклифларнинг баҳолаш натижаларини ёзма шаклда олиш ҳуқуқига эга.

Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил

29 июлдаги 368-сон [қарорига](#)

3-ИЛОВА

Шаҳар атрофи ва шаҳарлараро-вилоят ички йўналишларида йўловчилар ташишни ташкил этиш комиссияси тўғрисида НАМУНАВИЙ НИЗОМ

1. Шаҳар атрофи ва шаҳарлараро-вилоят ички йўналишларида ва Қорақалпоғистон Республикаси доирасидаги йўналишларда йўловчилар ташишни ташкил этиш комиссияси (бундан кейин матнда «Комиссия» деб аталади) шаҳар атрофи ва шаҳарлараро-вилоят ички йўналишларида йўловчилар ташиш ишларини янада ривожлантириш ва такомиллаштириш, улар кўрсатаётган хизматлар ҳажмлари ва турларини кенгайтириш, транспорт хизматлари кўрсатиш бозорида рақобат муҳитини яратишга оид комплекс чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва уларни амалга ошириш, ушбу чора-тадбирларнинг бажарилишини назорат қилишни таъминлаш мақсадида ташкил этилади.

2. Комиссия ўз фаолиятида Ўзбекистон Республикаси қонунларига, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари, фармойишларига, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари ва фармойишларига ҳамда мазкур Намунавий низомга амал қилади.

3. Қуйидагилар Комиссиянинг асосий вазифалари ҳисобланади:

шаҳар атрофи ва шаҳарлараро-вилоят ички йўналишларида йўловчилар ташувчи автомобиль транспортининг бир маромда ишлашини таъминлашга оид ишларни мувофиқлаштириш;

транспорт хизматлари кўрсатиш бозорида мулкчиликнинг турли шаклларидаги ташувчилар учун тенг шарт-шароитлар яратиш ва соғлом рақобатни ривожлантириш;

шаҳар атрофи ва шаҳарлараро-вилоят ички йўналишларида йўналишларни жойлаштириш учун тендерларни ташкил этиш ва ўтказиш;

йўловчилар ташиш автомобиль транспортини ривожлантиришга, улар томонидан кўрсатиладиган хизматлар ҳажмлари ва турларини кенгайтиришга оид комплекс чора-тадбирларнинг бажарилишини назорат қилиш;

йўловчилар ҳуқуқларига риоя қилинишини таъминлаш.

[Олдинги таҳрирга қаранг.](#)

[Олдинги таҳрирга қаранг.](#)

4. Комиссия Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлиги, Давлат автомобиль назорати, солиқ органлари, Хусусийлаштирилган корхоналарга кўмаклашиш ва рақобатни ривожлантириш қўмитаси органлари ва жойлардаги бошқа манфаатдор органлар вакилларида шакллантирилади.

(4-банднинг биринчи хатбошиси Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 16 августдаги 638-сонли [қарори](#) таҳририда — ЎР ҚХТ, 2017 й., 33-сон, 863-модда)

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раисининг, вилоят ҳокимининг транспорт ва алоқага мутасаддилик қилувчи ўринбосари Комиссия раиси ҳисобланади.

Комиссия таркиби Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоят ҳокимининг қарори билан тасдиқланади.

(4-банднинг биринчи хатбошиси Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 5 июндаги 245-сонли [қарори](#) таҳририда — ЎР ҚХТ, 2001 й., 11-сон, 65-модда)

5. Қўйилган вазифаларни бажариш учун Комиссия қуйидаги ҳуқуқларга эга:

давлат бошқаруви органларидан ва хўжалик юритувчи субъектлардан Комиссияга юкланган вазифаларни бажариш учун зарур бўлган ахборотларни олиш;

ваколатли органлар томонидан йўлларда ҳаракатланиш хавфсизлигини, ташувчилар томонидан белгиланган графикларга, жадвалларга, ташиш тарифларига риоя қилинишини, текин ва имтиёзли юриш ҳуқуқига эга бўлган йўловчиларнинг текин ва имтиёзли юриши таъминланишини назорат қилишга оид тадбирларни уюштириш;

тендерда ютиб чиқилган йўналишларда қонунга зид равишда ишловчи ташувчилар аниқланганда Давлат автомобиль назорати, Давлат солиқ қўмитаси, Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлиги органларига тегишли чоралар кўриш тўғрисида таклифлар киритиш;

шаҳар атрофида ва шаҳарлараро-вилоят ичида йўловчилар ташишнинг амалдаги тарифларини ўзгартириш юзасидан Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ҳокимликларига таклифлар киритиш.

6. Комиссия:

тендер бўйича жойлаштирилган йўналишлардаги иш натижаларини мунтазам равишда (бир ойда камида бир марта) яқунлаб боришга;

шаҳар атрофи ва шаҳарлараро-вилоят ички йўловчилар ташиш транспорти иши юзасидан тушган шикоятларни ўз вақтида кўриб чиқиш ишларини ташкил қилишга ва аниқланган камчиликларни бартараф этиш юзасидан таъсирчан чора-тадбирлар кўришга;

йўловчиларга хизмат кўрсатишнинг сифати ва маданиятининг у ёки бу масалалари, графиклар ва йўналишлар бўйича жамоатчилик фикрини ўрганишни ташкил этишга;

аҳолини ва давлат бошқаруви маҳаллий органларини шаҳар атрофи, шаҳарлараро-вилоят ички йўловчилар ташиш йўналишларида ишлаш ҳуқуқини берувчи тендерда ютиб чиққан йўловчи ташувчилар билан тузилган контрактлар бажарилиши тўғрисида ҳар ойда хабардор қилиб туришга, йўловчилар ташиш автомобиль транспортини ривожлантириш, улар томонидан кўрсатилаётган хизматлар ҳажмлари ва турларини кенгайтиришга;

ташиш жараёнини ташкил этишда ёрдам кўрсатишга;

ташувчилар ўтказилган тендер яқунлари бўйича Комиссия ёхуд унинг тартиботларидан норози бўлганларида уларга тушунтиришлар беришга мажбурдир.

7. Комиссия мажлислари заруратга қараб, лекин бир ойда камида бир марта ўтказилади. Комиссия мажлиси унда Комиссия аъзоларининг камида тўртдан уч қисми қатнашганда ваколатли бўлади.

Комиссия қарорлари кўпчилик овоз билан қабул қилинади ва протоколлар билан расмийлаштирилади. Овозлар тенг бўлиб қолган тақдирда Комиссия раисининг (у бўлмаганда — раис ўринбосарининг) овози ҳал қилувчи овоз ҳисобланади.

8. Комиссия фаолиятини ташкилий-техник таъминлаш Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари томонидан амалга оширилади.

Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил

29 июлдаги 368-сон [қарорига](#)

5-ИЛОВА

Шаҳарлараро-вилоятлараро ва халқаро йўналишларни жойлаштириш учун очик тендерлар ўтказишни ташкил этиш масалалари бўйича идоралараро комиссия тўғрисида НИЗОМ

1. Шаҳарлараро-вилоятлараро ва халқаро йўналишларни жойлаштириш учун очик тендерлар ўтказишни ташкил этиш масалалари бўйича идоралараро комиссия (бундан кейин матнда — Комиссия деб аталади) шаҳарлараро-вилоятлараро ва халқаро йўналишлар ишини такомиллаштириш, транспорт хизматлари кўрсатиш бозорида соғлом рақобат муҳитини таъминлаш ва ушбу вазифаларнинг бажарилишини назорат қилишни таъминлаш мақсадида ташкил этилган.

2. Комиссия ўз фаолиятида Ўзбекистон Республикаси қонунларига, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари ва фармойишларига, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари ва фармойишларига, мазкур Низомга амал қилади.

3. Қуйидагилар комиссиянинг асосий вазифалари ҳисобланади:

шаҳарлараро-вилоятлараро ва халқаро йўналишларда йўловчилар ташиш транспортининг бир маромда ишлашини таъминлашга оид ишларни мувофиқлаштириш;

транспорт хизматлари кўрсатиш бозорида мулкчиликнинг турли шаклларидаги ташувчилар учун тенг шарт-шароитлар яратиш ва соғлом рақобатни ривожлантириш;

шаҳарлараро-вилоятлараро ва халқаро йўловчилар ташиш йўналишларини жойлаштириш учун тендерлар ташкил этиш ва ўтказиш;

йўловчилар ташиш транспортини ривожлантириш, улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг ҳажмлари ва турларини кенгайтиришга оид комплекс чора-тадбирларни амалга оширишда қатнашиш;

йўловчилар ҳуқуқларига риоя қилинишини таъминлаш.

Олдинги таҳрирга қаранг.

Олдинги таҳрирга қаранг.

4. Комиссия Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлиги, Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги, Давлат солиқ қўмитаси, Давлат божхона қўмитаси, Хусусийлаштириш, монополиядан чиқариш ва рақобатни ривожлантириш давлат қўмитаси ва бошқа манфаатдор идораларнинг раҳбар ходимларидан иборат таркибда шакллантирилади.

(4-банд Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 16 августдаги 638-сонли қарори таҳририда — ЎР ҚХТ, 2017 й., 33-сон, 863-модда)

Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлиги бошлиғи Комиссия раиси ҳисобланади.

(4-банднинг биринчи хатбошииси Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 24 октябрдаги 412-сонли қарори таҳририда)

5. Қўйилган вазифаларни бажариш учун Комиссия қуйидаги ҳуқуқларга эга:

давлат бошқаруви органлари ва хўжалик юритувчи субъектлардан Комиссияга юкланган вазифаларни бажариш учун зарур бўлган ахборотларни олиш;

ваколатли органлар томонидан йўлларда ҳаракатланиш хавфсизлигини, ташувчилар томонидан белгиланган графикларга, жадвалларга, ташиш тарифларига риоя қилинишини, текин ва имтиёзли юриш ҳуқуқига эга бўлган йўловчиларнинг текин ва имтиёзли юриши таъминланишини назорат қилинишига оид тадбирларни уюштириш ва бошқалар;

тендерда юриб чиқилган йўналишларда қонунга зид равишда ишлаётган ташувчилар аниқланганда қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда чора-тадбирлар кўриш.

6. Комиссия:

тендер бўйича жойлаштирилган йўналишлардаги иш натижаларини мунтазам равишда (йилнинг ҳар чорагида камида бир марта) якунлаб боришга;

шаҳарлараро ва халқаро йўловчилар ташиш транспорти иши юзасидан тушган шикоятларни ўз вақтида кўриб чиқиш ишларини ташкил этиш ва аниқланган камчиликларни бартараф этиш бўйича таъсирчан чора-тадбирлар кўришга;

жадваллар ва йўналишлар бўйича хизмат кўрсатишнинг сифати, маданияти ва бир маромда бўлишининг у ёки бу масалалари бўйича жамоатчилик фикрини ўрганишни ташкил этишга;

аҳолини ва давлат ҳокимияти маҳаллий органларини шаҳарлараро, халқаро йўловчилар ташиш йўналишларида ишлаш учун тендерларда ютиб чиққан ташувчилар билан тузилган контрактларнинг бажарилиши тўғрисида ҳар ойда хабардор қилиб туришга;

ташиш жараёнини ташкил этишда ёрдам кўрсатишга;

ташувчилар ўтказилган тендер якунлари бўйича Комиссия қароридан ёхуд унинг тартиботларидан норози бўлганларида уларга тушунтиришлар беришга мажбурдир.

7. Комиссия мажлислари заруратга қараб, лекин йилнинг ҳар чорагида камида бир марта ўтказилади. Комиссия мажлиси унда Комиссия аъзоларининг камида тўртдан уч қисми қатнашганда ваколатли бўлади.

Комиссия қарорлари кўпчилик овоз билан қабул қилинади ва протоколлар билан расмийлаштирилади. Овозлар тенг бўлиб қолган тақдирда Комиссия раисининг (у бўлмаганда — раис ўринбосарининг) овози ҳал қилувчи овоз ҳисобланади.

8. Комиссия фаолиятини ташкилий-техник таъминлаш Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлиги томонидан амалга оширилади.